

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**«Himoyaga ruxsat etildi»
Tabiiy fanlar fakulteti dekani
_____ dots.A.Nazarov
“__” _____ 2018 yil**

5140600-geografiya bakalavriat ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi

Abduraxmanov Ilxomjon G'ulomjon o'g'li

**QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA KOSONSOY SOY
DARYO SUVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI
mavzuidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**«Himoyaga tavsiya etildi»
Geografiya kafedrasi mudiri
_____ dots. X.Mirzaaxmedov
«__» _____ 2018 y.**

**BMI rahbari: katta o'qituvchi
g.f.n A.Baratov**

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. SUV RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH TADBIRLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	6
1.1. Suv resurslarini ahamiyati, mohiyati, va undan samarali foydalanish masalalari.....	6
1.2. Qishloq xo'jaligini rivojlantirishda suv resurslarining o'ziga xos hususiyatlari.....	13
1.3. Davlatlararo suv resurslarini boshqarish muammolari.....	23
II-BOB. NAMANGAN VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA KOSONSOY SOY DARYO SUVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI.....	33
2.1. Kosonsoy tumanining tabiiy sharoiti va resurslarining qishloq xo'jaligi rivojlanishida o'rni va axamiyati.....	33
2.2. Kosonsoy daryo xavzasida suv resurslari miqdorini baholash.....	41
2.3. Kosonsoy daryo suvlaridan samarali foydalanish masalalari.....	51
Xulosa.....	61
Foydalanilgan adabiyotlar.....	63

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasining suv ta'minotida qo'shni davlatlardan oqib keladigan yirik daryolar bilan bir qatorda kichik daryolar ham muhim rol o'ynaydi, xususan ular aholi qo'rg'onlari, sanoat korxonalari va qishloq xo'jaligi maydonlarining suv ta'minotida muhim ahamiyatga egalar. Jumladan, Sirdaryo havzasida O'zbekiston xududida ist'emol qilinadigan daryo suv resurslarining qariyb yarmi kichik daryo va soylar hissasiga to'g'ri keladi.

Suv Farg'ona vodiysi viloyatlarida ijtimoiy - iqtisodiy taraqqiyotida asosiy omil hisoblanadi. Oxirgi 20 yil ichida mintaqada kuzatilayotgan suv tanqisligi ijtimoiy - iqtisodiy holatga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Iqlim o'zgarishi sur'atlarini hisobga olsak kelajakda suv tanqisligi o'sishi ehtimoli yuqori, bu esa nafaqat cho'l mintaqalari, balki butun mintaqaning barqaror taraqqiyotiga to'sqinlik qiladi. Qurg'oqchil iqlim sharoitiga ega bo'lgan Farg'ona vodiysi adirlar xududida suv resurslaridan samarali foydalanish barqaror taraqqiyotning eng asosiy omillaridan hisoblanadi.

Kosonsoy daryo havzasida mavjud suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish va ulardan tejamli foydalanishni yo'lga qo'yish muxim ahamiyatga ega. Mazkur daryo havzalarida suv ist'emolchilarni suv bilan ta'minlash uchun davlatlararo munosabatlarni shakillantirish eng to'g'ri yo'l sanaladi. Suv ta'minoti yaxshilangan qishloq xo'jalik ekin maydonlaridan olinadigan hosil miqdori ko'payib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi barqarorlashadi va qishloq aholisi turmush darajasini yaxshilanishi uchun mustahkam zamin yaratiladi.

Kosonsoy daryo havzasi boshqa suv manbalarining yo'qligi, sug'orish kanallarida suv oqimi tezligi va suv fil'tratsiyasining kuchliligi hamda sug'oriladigan maydonlari qiyaligining katta ekanligi bilan xarakterlanadi.

Suv resurslarini boshqarish suvning hayot manbai ekani, suv resurslarining ijtimoiy iqtisodiy rivojlanish, insonning tabiat bilan o'zaro munosabatlarida o'ta

muhim o'rin tutishini chuqur anglab yetishni taqozo qiladi. Suv resurslarini boshqarishning istiqbolini inson faoliyati va tabiiy muvozanat o'rtasidagi o'zaro bog'liq ekaniga oid chuqur bilimga ega bo'lgan holdagina bashorat qilish mumkin. Mintaqada keyingi o'n yil mobaynida xalqaro hamjamiyat yordamida qo'lga kiritilgan tajriba va saboqlar mamlakatning suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish printsiplari va yondashuvlariga o'tish uchun qulay imkoniyat yaratdi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Mamlakatimizda irrigatsiya va melioratsiya tadbirlarining barcha xarajatlari to'liq davlat byudjeti hisobidan qoplanmoqda. Bu qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l hosil olishda muhim omil bo'lmoqda. Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini suv bilan kafolatli ta'minlash maqsadida har yili davlat byudjetidan 2 trillion so'mdan ortiq, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash uchun 400 milliard so'mdan ziyod mablag' ajratilmoqda ¹.

Shunday sharoitda mavjud suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va xo'jalik mexanizmini takomillashtirish muammolarini iqtisodiy-geografik jihatdan o'rganish va yechimlarini ishlab chiqish zaruriyati mavzuning dolzarbligini ifodalaydi.

BMining maqsad va vazifalari. Tadqiqotning maqsadi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida Davlatlararo suv xo'jaligi rivojlanishining o'ziga xos iqtisodiy-geografik xususiyatlarini tadqiq qilish asosida mintaqada suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdir. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

-Markaziy Osiyo mintaqasida suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish printsiplari va yondashuvlarini o'rganish;

¹ Mirziyoyev.Sh.M Risq-ro'zimiz bunyodkori qishloq xo'jalik xodimlari mehnatini ulug'lash, soxa rivojini yangi bosqichga ko'tarish-asosiy vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <http://www.uza.uz/uz/documents/rizq-ro-zimiz-bunyodkori-bo-lgan-qishloq-xo-jaligi-xodimlari-09-12-2017>

- Orol bo'yidagi vaziyatni barqarorlashtirishga oid hamkorlikdagi faoliyatni tahlil qilish;
- Suv resurslaridan samarali foydalanishda davlatlararo munosabatlarni iqtisodiy-geografik rivojlanish xususiyatlarini o'rganish;
- Kosonsoy tumanining tabiiy sharoiti va resurslarining qishloq xo'jaligi rivojlanishida o'rni va ahamiyatini iqtisodiy-geografik jihatdan taxlil qilish;
- Kosonsoy daryo xavzasida suv resurslari miqdorini baxolash;
- Suv resurslaridan foydalanishning iqtisodiy-ekologik oqibatlarini aniqlash va bartaraf etish yo'llarini asoslash;
- Kosonsoy daryo suvlaridan samarali foydalanish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish. va xokazo

BMIning obyekti. Tadqiqot ob'ekti sifatida Kosonsoy tumani suv xo'jaligini rivojlanishi, suv resurslaridan samarali foydalanish va uning davlatlararo yo'nalishi, suv xo'jaligi rivojlanishining iqtisodiy-geografik xususiyatlaridan iborat.

Ishning tuzulishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 67 bet, shundan bevosita matn qismi 62 bet, -9ta jadval, 1 ta karta va 2 ta chizmadan iborat

I-BOB. SUV RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH TADBIRLARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1. Suv resurslarini ahamiyati, mohiyati, va undan samarali foydalanish masalalari

Suv – tabiatning qimmatbaho resursi bo'lib, biosferaning mavjudligini ta'minlovchi moddalar almashinishi jarayonlarida o'ta muxim rol o'ynaydi. Suv xar doim va xar vaqt biosferaning muxim qismini tashkil etib, insonlar yashash muxitining ajralmas qismi bo'lib qoladi. Atrof-muxitimizning mavjudligini ta'minlashda zaruriy vosita bo'lib, sayyoramizdagi butun tirik organizmlarni, eng avvalo, butun insoniyatni yashashi uchun sharoit yaratadi. Suvning sanoat va qishloq xo'jaligidagi ahamiyati beqiyosdir. Uning maishiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur vosita ekanligi hech kimga sir emas. Suv inson organizmi, barcha o'simlik va xayvonlar tarkibini tashkil qiladi. Ko'plab tirik mavjudotlar uchun yashash muxiti vazifasini bajaradi. Demak suv tabiatda va inson xayotida suvning ahamiyati beqiyosdir.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev: Suv resurslari cheklangan mintaqamizda dehqonchilik qilish, mo'l va sifatli hosil olish qanchalar og'ir va mashaqqatli ekanini siz, shu sohaning mohir ustalari juda yaxshi bilasiz. Shuning uchun suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan tadbirlar qo'llab-quvvatlanib, buning tashabbuskori bo'lgan xo'jalik va tashkilotlarga qo'shimcha imtiyoz va preferentsiyalar yaratib berilmoqda. Natijada bugungi kunda qariyb 240 ming gektar maydonda ana shunday texnologiyalar, jumladan, 28 ming gektar yerda tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy qilindi. ²

O'zbekiston Respublikasining yagona davlat suv fondi: daryolar, ko'llar, suv omborlari. boshqa yer usti suv havzalari va suv manbalari, kanal va hovuzlarning

² Mirziyoyev.Sh.M Risq-ro'zimiz bunyodkori qishloq xo'jalik xodimlari mehnatini ulug'lash, soxa rivojini yangi bosqichga ko'tarish-asosiy vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <http://www.uza.uz/uz/documents/rizq-ro-zimiz-bunyodkori-bo-lgan-qishloq-xo-jaligi-xodimlari-09-12-2017>

suvlaridan, yer osti suvlari va muzliklardan iboratdir. Davlatlararo daryolar, Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, Orol dengizi va boshqa suvlardan foydalanish huquqi davlatlararo bitimlarda belgilab beriladi.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish ustidan davlat nazoratini maxalliy xokimiyat va boshqaruv organlari, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi sanoatda va konchilikda ishlarning bexatar olib borilishini nazorat qilish agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi qonun xujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiradilar. Jamoat birlashmalari, jamoalar o'z nizomlariga muvofiq hamda fuqarolar suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlariga ko'maklashadilar. Suvning xolatiga ta'sir o'tkazadigan yangi va ta'mirlangan korxonalar, inshootlar va boshqa ob'ektlarni joylashtirish, loyihalash, qurish hamda ishga tushirish, shuningdek yangi texnologiya jarayonlarini joriy etish chog'ida aholining sihat-salomatligini saqlash va ichimlik suviga bo'lgan talablarini hamda maishiy ehtiyojlarini birinchi navbatda qondirish sharti bilan suvdan oqilona foydalanishni ta'minlash lozim.

Bunda suv ob'ektlaridan olinadigan va shu ob'ektlarga qaytariladigan suvni hisobga olishni, suvni bug'lanish, ifloslanish va kamayib ketishdan saqlashni, suvning zararli ta'sirini oldini olishni, yerlarni suv bosish xavfini imkon qadar kamaytirishni, yerlarni sho'rlanishdan, zax bosishdan yoki qaqrab qolishdan muhofaza qilishni, shuningdek qulay tabiiy sharoitlar va landshaftlarni saqlab qolishni ta'minlovchi tadbirlarni o'tkazish ko'zda tutiladi.

Suvdan foydalanishning ikki xil turi mavjud:

1. suvdan umumiy foydalanish - suvning xolatiga ta'sir qiladigan inshootlar yoki texnikaviy qurilmalarni qo'llamay foydalanish.
2. suvdan maxsus foydalanish - inshootlarni yoki qurilmalarni qo'llanish yo'li bilan foydalanish.

Inshootlar yoki texnikaviy qurilmalarni qo'llamay turib, ammo suvning xolatiga ta'sir qiladigan tarzda suv ob'ektlaridan foydalanish ham ayrim hollarda

suvdan maxsus foydalanish turiga kiritilishi mumkin. Suvdan umumiy va maxsus foydalanish turlarining ro'yxati qishloq va suv xo'jaligi, tabiatni muxofaza qilish, sanitariya nazorati, geologiya va mineral resurslar organlari tomonidan belgilab qo'yiladi. Tanho foydalanmoq uchun suv ob'ektlari berib qo'yilgan korxonalar, tashkilotlar va muassasalar - suvdan birlamchi foydalanuvchilar hisoblanib, ular qishloq va suv xo'jaligi va tabiatni muhofaza qilish organlari bilan kelishib, boshqa korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va fuqarolarga suvdan ikkilamchi foydalanish uchun ruxsat berishga xaqlidirlar.

Suvdan ikkilamchi foydalanish uchun berilgan ruxsatnomada suv ob'ektini berish maqsadi va undan foydalanishning asosiy shartlari ko'rsatiladi. Zarur hollarda suvdan ikkilamchi foydalanish shartlari, taraflarning o'zaro huquq va burchlari suvdan birlamchi hamda ikkilamchi foydalanuvchilar o'rtasidagi shartnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Suv ob'ektlari, avvalo, aholining ichimlik suviga bo'lgan ehtiyojni va maishiy ehtiyojini qondirish uchun foydalanishga beriladi. Suvdan umumiy foydalanish ushbu Qonun va boshqa qonun xujjatlarida belgilanadigan tartibda ruxsatsiz va cheklashlarsiz amalga oshiriladi. Suvdan foydalanuvchilarning barchasiga nisbatan suvdan limit bo'yicha foydalanish tartibi belgilanadi. Suvdan foydalanish limitlari suv manbalari, havza irrigatsiya tizimlari, magistral kanallar (tizimlar), iqtisodiyot tarmoqlari, xududlar va har bir suvdan foydalanuvchi bo'yicha belgilanadi, yer osti suvlari borasida esa geologiya va mineral resurslar hamda davlat konchilikni nazorat qilish organlari bilan kelishib belgilanadi. Suvdan foydalanish limitlari qishloq va suv xo'jaligi organlari tomonidan belgilanib, unga rioya etish idoraviy bo'ysinuvidan qat'i nazar, suvdan foydalanuvchilarning barchasi uchun majburiydir.

Suvdan foydalanuvchilar, suv ob'ektlaridan oqilona ravishda foydalanishlari, suvni tejab-tergab sarflash, suvning sifatini qayta tiklash va yaxshilash to'g'risida qayg'urishlari, suv olishning belgilangan me'yorlariga rioya etishlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning suvdan foydalanish xuquqi,

- Suvdan foydalanishga ehtiyoj qolmaganda yoki undan voz kechilganda;
- Suvdan foydalanish muddati tugaganda;
- Korxona, muassasa, tashkilot, fermer xo'jaligi tugatilganda, dehqon xo'jaligi tugatilganda yoki uning faoliyati to'xtatilganda;
- Suv xo'jaligi inshootlari boshqa suvdan foydalanuvchilarga berilganda;
- Tanho foydalanilayotgan suv ob'ektlarini qaytarib olishga zarurat tug'ilganda bekor qilinadi.
- Tabiat ob'ektlariga (yerlar, o'rmonlar, xayvonot dunyosi, foydali qazilmalar va hokazolarga) zarar yetkazilishiga yo'l qo'ymasliklari;
- suv resurslaridan foydalanganlik haqini o'z vaqtida to'lashlari shart.

Suvdan foydalanish va uni muhofaza qilish qoidalari buzilgan yoki suv ob'ektidan belgilab qo'yilganidan boshqa maqsadda foydalanilgan, suv haqi to'lanmagan hollarda ham korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, fermer, dehqon xo'jaliklari va fuqarolarning suvdan foydalanish huquqi bekor qilinishi mumkin (ichimlik suvga bo'lgan ehtiyoj va maishiy ehtiyojlarni qondirish uchun suvdan foydalanish huquqi bundan mustasnodir).

Qishloq xo'jaligida suvdan foydalanish ishlari qishloq xo'jaligi kooperativlarining (shirkatlarining) boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari, tashkilotlari, fermer va dehqon xo'jaliklarining sug'oriladigan yerlarida qulay suv rejimi vujudga keltirish maqsadida amalga oshiriladi.

Suv ob'ektlaridan qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanish suvdan me'yorlar bo'yicha foydalanishning belgilangan yo'siniga rioya etgan holda suvdan umumiy foydalanish tartibida ham, maxsus foydalanish tartibida ham amalga oshiriladi. Fermer va dehqon xo'jaliklarining suvdan foydalanish limitlari ularning roziligisiz o'zgartirilishi mumkin emas, suv ob'ektlarning suvi kamaygan hollar bundan mustasnodir.

Sug'orish, suv chiqarish va sug'orish-suv chiqarish tizimlaridagi, magistral kanallardagi, suv omborlaridagi va boshqa suv xo'jaligi ob'ektlaridagi suvdan foydalanish ishlari suvdan foydalanish rejalari

asosida yillik amaldagi suv bilan ta'minlanganlik hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Suvdan foydalanish rejaları suvdan birlamchi foydalanuvchilar tomonidan tuzilib, irrigatsiya tizimlari boshqarmalari va irrigatsiya tizimlari havza boshqarmalari tomonidan umumlashtiriladi.

Quyidagilar: - irrigatsiya tizimi boshqarmasi tuman qishloq va suv xo'jaligi bo'limi bilan kelishgan holda - suvdan birlamchi foydalanuvchi bo'yicha;
- irrigatsiya tizimlari xavza boshqarmasi viloyat qishloq va suv xo'jaligi boshqarmasi bilan kelishgan holda - irrigatsiya tizimi bo'yicha:

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining Suv xo'jaligi bosh boshqarmasi - havza irrigatsiya tizimi hamda viloyatlararo va respublika ahamiyatiga molik ayrim yirik suv xo'jaligi ob'ektlari bo'yicha tuzilgan va umumlashtirilgan suvdan foydalanish rejalarini tasdiqlaydi.

Suvdan qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun foydalanuvchilar: suvdan foydalanishning belgilangan limitlari, rejaları, qoidaları, me'yorlari va rejimlariga rioya etishlari, tik drenajni inobatga olgan holda foydalanishning barcha turlari uchun ishlatilayotgan suvni hisobga olib borishlari; ichki xo'jalik sug'orish, suv chiqarish va kollektor-drenaj tarmog'i hamda undagi inshootlarni va suv chiqarish quduqlarini texnika jixatidan ishga yaroqli holda saqlashlari; melioratsiya qilingan yerlarni kompleks rekonstruktsiya qilishlari va qishloq xo'jalik ekinlari hamda o'simliklarni sug'orish, shuningdek yaylovlarga suv chiqarishning maqbul rejimini saqlashlari. Suv ob'ektlaridan sanoat maqsadlarida va issiqlik energetikasi ehtiyojlari uchun foydalanuvchilar belgilangan limitlarga, suvdan foydalanish texnologiya me'yorlari va qoidalariga rioya etishlari, shuningdek ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish yo'li bilan suv sarfini kamaytirish va chiqindi suvlarning oqizib yuborilishini to'xtatish choralarini ko'rishlari shart.

Aylanma suv ta'minotiga ega bo'lmagan ishlab turgan korxonalar uchun tabiatni muhofaza qilish organlari tomonidan qishloq va suv xo'jaligi organlari bilan kelishilgan holda ularni suv ta'minotining to'xtovsiz tizimga o'tkazish muddatlari belgilanadi. Ichimlik suvlar qatoriga kiritilgan yer osti chuchuk

suvlaridan ishlab chiqarish-texnika maqsadlari uchun foydalanish taqiqlanadi, zarur yer usti suv manbaalari mavjud bo'lmagan xududlarda foydalanadigan hollar bundan mustasnodir.

Ichimlik yoki shifobaxsh suvlar qatoriga kiritilmagan yer osti suvlaridan (chuchuk, mineral va issiq suvlardan) foydalanishga loyiq tasdiqlangan zaxiralari bo'lsa, belgilab qo'yilgan tartibda texnika suv ta'minoti uchun, mazkur suv tarkibidagi kimyoviy elementlarni ajratib olish, issiqlik energiyasi hosil qilish va boshqa ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun suvdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish talablariga rioya qilingan holda foydalanish mumkin.

Suv yo'llarini kema qatnaydigan suv yo'llari qatoriga kiritish, shuningdek suv yo'llaridan foydalanish qoidalarini belgilab berish tartibi qonunlar bilan belgilanadi. Suv ob'ektlaridan kichik kemalarda (eshkakli va motorli qayiqlar, katerlar, yelkanli yaxtalar va shu kabilarda) suzib yurish uchun foydalanishga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan qoidalarga muvofiq ruxsat beriladi.

Daryolar, ko'llar, suv omborlari, kanallar, basharti, suv yo'llari sifatida foydalanish to'la yoki qisman taqiqlangan yoxud ular tanho foydalanish uchun berib qo'yilgan bo'lmasa, umum foydalanadigan suv yo'llari hisoblanadi.

Suv ob'ektlariga oqindi suvlarni oqizishga suv ob'ekti tarkibidagi ifloslovchi moddalarning belgilab qo'yilgan me'yorlardan oshib ketishiga yo'l qo'ymaslik sharti bilan va suvdan foydalanuvchi bunday oqindi suvlarni tabiatni muxofaza qilish va sanitariya nazorati organlari tomonidan belgilab qo'yilgan darajaga yetkazib tozalab berish sharti bilangina yo'l qo'yiladi. Suv ob'ektlaridan oqindi suvlarni oqizish uchun foydalanish tartibi va shartlari qonunlar bilan belgilanadi.

Suv omborlarida suv to'sadigan, suv o'tkazadigan yoki suv tuplaydigan inshootlarni ishlatuvchi korxonalar, tashkilotlar va muassasalar suv omborlarining ta'sir mintaqasidagi suvdan foydalanuvchilar, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarning manfaatlarini hisobga olgan holda suv omborlarini suv bilan to'ldirish va ulardan suv chiqarish borasida belgilangan rejimda rioya qilishlari shart.

Suv omborlari turli suvdan foydalanuvchilarning suvga bo'lgan ehtiyojini qondirishni tartibga solish maqsadida bunyod etiladi. Suv omborlarini suvga to'ldirish va ulardan suvni chiqarish rejimi, suv satxining o'zgarish rejimi, gidrouzel orqali suv o'tish rejimi, kemalarning bemalol va xavfsiz o'tishi, shuningdek baliqlarning urug' tashlaydigan joylarga o'ta olishini ta'minlash suv omborlaridan foydalanish qoidalari bilan belgilanadi.

Suv omborlaridan foydalanish tartibi O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va boshqa manfaatdor organlar bilan kelishib, har bir suv ombori, suv omborlari tizmasi yoki tizimi uchun tasdiqdangan qoidalarda belgilanadi. Chegara suvlaridan foydalanish, suv xo'jaligi va suvni muhofaza qilish tadbirlarini o'tkazish halqaro shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Sug'oruv suvidan foydalanish samaradorligini oshirish davlat ahamiyatiga molik vazifa hisoblanadi. Suv resurslaridan samarali foydalanishning mohiyati kam xarajatlar bilan sug'oruv suvi birligiga eng ko'p mahsulot olishdadir. Bunga turli xil texnologik, tashkiliy va iqtisodiy tadbirlarni amalga oshirish yo'li bilan erishiladi.

Sug'orma dehqonchilikda suvdan foydalanish samaradorligini quyidagi ko'rsatkichlar harakterlab beradi:

- Sug'orish tizimining foydali ishlash koeffitsienti;
- Sug'orish tizimida suvdan foydalanish koeffitsienti;
- Sug'oruv suvining unumdorligi.

Qishloq xo'jaligida suvning ko'pgina qismi qaytmas tarzda sarflanishi qayd qilib o'tildi. Suvning qaytmas tarzda iste'mol qilinishi sabablaridan biri uning irrigatsiya tizimlarida shimilishi va bug'lanishi natijasida yo'qolishidir. Bu yo'qotishlar iste'mol qilinadigan hamma suvning 20-25% ini, goho esa 40% ni tashkil etadi.

Suvning yo'qotilishi sug'orish tizimi foydali ishlashi koeffitsienti (KPD)da aks etadiki, bu maydonga oqib boradigan suvning (W_{nt}) muayyan davrda sug'orish manbalaridan (W_{br}) olingan suv miqdoriga nisbatidir.

$KPD = W_{nt} / W_{br}$ Suv olish hajmi bilan berilgan suv o'rtasidagi farq shimilishi va bug'lanishiga ketgan yo'qotishlarni tashkil etadi.

1.2. Qishloq xo'xaligini rivojlantirishda suv resurslarining o'ziga xos hususiyatlari

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar tabiiy resurslardan, xususan, suv va yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanishni taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, asosan, sug'oriladigan yerlarda olib boriladi. Qishloq xo'jaligi sektoridagi asosiy maxsulot ishlab chiqaruvchi, eng katta suv iste'molchisi bu sug'oriladigan dehqonchilikdir. Mamlakatimizda suv resurslarining 92% ga yaqinidan qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Sug'oriladigan yerlarda dehqonchilik mahsulotlarining 97%idan ortig'i yetishtiriladi. Respublikaning asosiy xududlari quruq iqlim tabiati zonasida joylashgan va bu hududlarda dehqonchilik faqat ekinlarni sun'iy sug'orish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shuning uchun bunday yerlar Respublikamiz "oltin fondi" hisoblanadi. Ular jami yerlarning 10% ga yaqinini yoki 4,2 mln gektarni tashkil etgan holda, yalpi qishloq xo'jalik mahsulotlarining 97 % ini yetkazib beradi.

Suv ta'minoti Respublika iqtisodiyotini, shu jumladan, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishni rivojlantirishni cheklovchi jiddiy omil hisoblanadi. Bunday holat davlatlararo suv taqsimoti bilan bog'liq bo'lgan suv resurslari tanqisligining kuchayishi, suv xo'jaligi tizimida daryo oqimlari tartibining o'zgarishi, Orol havzasi daryolarining suv o'tkazish qobiliyati kamayishi va suv resurslari sifatining yomonlashishi bilan ifodalanadi.

Chuchuk suv manbalari bo'yicha Markaziy Osiyo davlatlari dunyodagi mamlakatlar o'rtasida birinchi o'rinni egallaydi. Biroq, chuchuk suvlar ushbu davlatlar xalq xo'jaligida to'liq foydalanilmaydi. Suv manbalari O'zbekiston Respublikasida hududlar bo'yicha bir tekis taqsimlanmagan. Suv manbalarining qariyb barchasi ko'p yillik muzliklar, qor va yomg'ir hisobiga tashkil bo'ladi. Asrlar davomida Markaziy Osiyo davlatlari, shu jumladan, O'zbekiston

Respublikasi qishloq xo'jaligida suv resurslarining tanqisligi sezilib turgan. Bu jarayon hozirgi kunda ham yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Shu nuqtai nazardan, yer usti va yer osti suv resurslarini tejab – tergab foydalanish suv xo'jaligi tizimini har tomonlama rivojlantirishni talab qiladi. Ma'lumki, sobiq Ittifoq davrida qishloq xo'jaligini ekstensiv rivojlantirishga katta e'tibor berilgan. Oqibatda katta – katta yer maydonlari o'zlashtirildi. Natijada, qishloq xo'jaligida suv iste'moliga bo'lgan talabni o'z – o'zidan o'sishiga olib keldi.

Respublikamizda XX- asrning boshlarida 400 ming gektar sug'oriladigan yer bo'lsa, 1988- yilga kelib 4,1 mln. gektarga yetdi. O'zbekiton sobiq Ittifoqning asosiy paxta xom - ashyosi yetkazib beradigan agrar respublikasi edi. Ekin maydonlarining kengaytirilishi hamda paxta o'simligining ko'p iste'mol qilishi qishloq xo'jaligida suv resurslarining ahamiyatini oshirdi. O'zbekiston Respublikasiga suv resurslari asosan Afg'oniston, Qirg'iziston va Tojikiston Respublikalaridan oqib keladi. Bu, eng avvalo, har xil sabablarga ko'ra suv tanqisligini va davlatlararo yangi iqtisodiy munosabatlarni yuzaga keltiradi. Ushbu ayrim davlatlarning qonunchiligida suv davlat mulki sifatida qaraladi. Bu holat qishloq va suv xo'jaligi iqtisodiyotida o'ziga xos xususiyatlarni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda suv resurslarini tejash dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Suv resurslarini tejash nafaqat qishloq xo'jaligi rivojini, balki iqtisodiy va ijtimoiy boshqa tarmoqlarining taraqqiyotini ham belgilab beradi. O'z navbatida O'zbekiston Respublikasi tabiiy iqtisodiy va geografik jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Respublikaning umumiy hududi 48,910 ming gektardan iborat bo'lsa, uning 1,621 ming gektarini yoki 3.6%ini tog'lar, 16,040 ming gektarini yoki 36% ini qir va adirlar, 19,134 ming gektarini yoki 43 %ini cho'llar va 8,095 ming gektarini yoki 18%ini o'rmonzorlar tashkil etadi. Mamlakatimiz iqlimi esa keskin kontinental bo'lib, o'rtacha yog'ingarchilik miqdori asosan kuzgi – qishki va baxorgi davrlarda o'rtacha 80dan 350 mm.gachani tashkil etadi.

Suv resurslari – bu hududlararo ahamiyat kasb etuvchi tabiat mahsuli. U iste'mol qilinadigan o'nlab va hatto yuzlab kilometr joyga kanallar, sug'orish

tarmoqlari, gidrotexnik qurilmalar yordamida yetkazib beriladi. hozirgi kunda sug'orish kanallarining umumiy o'zunligi 200 ming kilometr ga yaqinni tashkil etadi. Suvsiz yerlarga suv yetkazib berish qishloq xo'jaligida suv sarfini eng ko'p talab qiladigan yo'nalish hisoblanadi. Bunday yerlar o'rtacha bir yilda gektariga 1000 - 30000 m³ gacha suv iste'mol qiladi. Yaylov yerlarga sarflanadigan suv sarfi uncha katta bo'lmaydi, ammo uning, ko'pincha katta hajmdagi suv sarfi yoz oylariga to'g'ri keladi. Bunday sharoitda suvning katta qismi yer osti suv manbalaridan quduq va boshqa inshootlar yordamida olinadi.

Suv resurslari umumxalq boylikdir. Bu resurslarning manbalari, ya'ni, 61 %i katta daryolar, 35,5 % ini kichik daryolar va soylar, 0,9 % ini yer osti suvlari va 2,6 % ini zakan – zovur va qayta ishlatiladigan suvlar tashkil etadi. Umuman olganda, Amudaryo va Sirdaryo havzalarining mavjud suv resurslari 133,6 km³ ni tashkil etadi. Keltirilgan hajmdan O'zbekistonga to'g'ri keladigan 71,4 km³ , shundan 61,1 km³ sug'orishga va 11,3 km³ boshqa iste'molchilarga sarflanadi.

Orol dengizi havzasi bo'yicha mavjud suv resurslarini taqsimlash Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida sxemalarda 1983-1984 yillarda belgilangan davlatlararo suvni bo'lish limiti, 1996- yili davlatlararo muvofiqlashtirish suv xo'jaligi komissiyasi tomonidan Chorjo'y shaxridagi yig'ilishda tasdiqlangan. O'zbekiston Respublikasining bor suv resurslari qayta tiklanadigan tabiiy yer osti va yer usti hamda antropogen asosli qaytib keluvchi suvlardan iborat. Suv resurslari milliy va transchegara suvlariga bo'linadi:

- milliy suv resurslari o'z ichiga mahalliy daryo suvlari, yer osti va qaytib keladigan suvlardan, shuningdek, bir mamlakat chegarasida paydo bo'ladigan suvlardan iborat;
- transchegara suvlari ikki yoki undan ortiq mamlakatlar hududida joylashgan, gidravlik trans chegara daryolari bilan bog'langan, shuningdek, sun'iy (antropogen) suv havzalari.

Ko'p yillik kuzatish natijalariga qaraganda daryo suvlarining o'rtacha ko'p yillik tabiiy hajmi 123 km³ ni tashkil etadi, shundan:- 81,5 km³ Amudaryo

havzasiga (1932-1933 – 1998-1999 yillarda); - 41,5 km³ Sirdaryo daryosi havzasiga (1926-1927 – 1998-1999 yillarda) tegishlidir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda taxminan 42,5 km³ transchegara daryo suvlari ishlatiladi, shundan 34 km³ Amudaryo va Sirdaryodan olinadi. O'zbekistonda paydo bo'ladigan yer usti suvlari 11,5 km³ ni tashkil etadi. Daryo suvlari yil mobaynida bo'ladigan va ko'p yillik notekislik bilan xarakterlanadi.

Suv resurslarini ishlatish strategiyasida asosiy qiziqishni bor suv resurslari uyg'otadi, ular nafaqat tabiiy, suv omborlarida saqlangan suv, balki qaytib keladigan va yer osti suvlarini ham hisobga oladi. Keyingi yillarda aholi o'sishi, yerlarni kam o'zlashtirilishi hisobiga sug'oriladigan yerlar maydoni aholi boshiga hisoblanganda qisqarmoqda. Bundan tashqari, Respublikamiz qurg'oqchil hududda joylashgan. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning sug'orma maydonlarini suv resurslarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Sug'orma dehqonchilikning asosiy hususiyati va ahamiyati shundan iboratki, u sug'orilmaydigan yerlardagi dehqonchilikka nisbatan tabiat injiqliklari ta'siri ostida bo'lmaydi. Aholi sonining o'sib borishi yer – suv resurslaridan hamda asosiy ishlab chiqarish fondlaridan nisbatan samarali va unumli foydalanishni talab qiladi. Mamlakatimiz yer resurslarining 12 mln. gektariga yaqini sug'orishga yaroqli: shundan 4.2 mln. gektarini sug'oriladigan yerlar; 30,9 mln. gektarini cho'l yaylovlari, tog'lar, qumliklar va boshqa yerlar tashkil etadi. Hozirgi kunda sug'oriladigan maydonning 57% dan ko'prog'i cho'l va yarim cho'l zonasida tabiiy va ikkilamchi sho'rlanishga uchragan, qolgan 43%i yuqori poyas tuproqlaridan tashkil topgan yerlardir.

Suv kam yillari, ayniqsa, keyingi yillar davomida suv tanqisligi keskin ko'tarildi. Bu esa, qishloq xo'jaligining rivojini keskin darajada pasayishiga olib keladi. Respublikada suv resurslari taqchilligini oldini olish maqsadida qo'shimcha suv omborlari qurilmoqda va mavjudlari qayta ta'mirlanmoqda. Qishloq xo'jaligi va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlariga xizmat qiluvchi Respublika ahamiyatidagi viloyatlararo suv omborlari hamda viloyat ahamiyatidagi suv omborlari mavjud. Respublika ahamiyatidagi viloyatlararo suv omborlariga -

Andijon, Kattaqo'rg'on, Tallimarjon, Tuyamo'yin, Chorvoq suv omborlari kiradi. Bu suv omborlari o'zida juda katta hajmdagi suv resurslarini saqlay oladi va shu bilan birga suvni iste'molchilarga yetkazib beradi.

Respublikamizdagi hajmi 10 mln.m³ dan ortiq bo'lgan suv omborlari mavjud. Qayd qilingan suv omborlaridan tashqari, yana kichik - kichik suv omborlari mavjud. Ta'kidlangan suv omborlarining umumiy suv yig'ish hajmi 24150,6 mln.m³ni tashkil etadi.

Mamlakatimizdagi suv resurslarining katta xajmini Respublika ahamiyatidagi viloyatlararo: Andijon; Kattaqo'rg'on; Tallimarjon; Chorvoq suv omborlari to'plab beradi.

Ularning umumiy suv sig'imi 14125 mln.m³ni tashkil etadi. Bu esa jami suv omborlarida yig'iladigan suv miqdorining 58,5% ini tashkil qiladi. Bu suv omborlari: Qoradaryo; Zarafshon; Amudaryo; Chirchiq daryolaridan suv oladi. Suv omborlarining suv chiqarish imkoniyati ham juda yuqori. Masalan: Tuyamo'yin suv omborining suv chiqarish imkoniyati 1277 m³ /s ni, Chorvoq suv omborining suv chiqarish imkoniyati 1650 m³ /s ni tashkil qiladi. Lekin, bu suv omborlarining suv sig'imi hozirgi vaqtda foydalanishga topshirilgan vaqtdagiga qaraganda nisbatan kamaygan. Chunki, bahor oylarida jala va kuchli yomg'ir yog'ishi natijasida paydo bo'ladigan sel daryo o'zanidagi turli xil yotqiziqlarni suv omboriga olib keladi. Loyqa va turli yotqiziqlarning oqizib ketilishi natijasida suv omborlari sayozlasha boradi kam miqdordagi suv resurslarini qabul qilib, ortig'i daryoga oqizib yuboriladi. Suv omborlarini cho'kindi va loyqalardan tozalash ishlari sust amalga oshirilyapti. Suv omborlarini tozalashda texnika va asbob uskunalarining ma'naviy va jismoniy jihatdan eskirishi bu ishlarni to'laqonli bajarishga imkon bermayapti. Agar zamonaviy texnika moslamalaridan foydalanilsa, suv omborlarini yaxshi ishchi xolatga keltirish va qishloq xo'jaligi ekinlariga yetarli miqdordagi suvni saqlash va uni ekin dalalariga yetkazib berish imkoniyati yuzaga keladi.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va Suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimizda o'rtacha bir yilda 51-54 mln. m³ suv resurslar ishlatiladi. Buning asosiy qismi ya'ni, 92 %i sug'orishga, 4 %i kommunal xo'jaligiga, 1,5 %i sanoatga, 0,2 %i energetikaga va 2,3 %i boshqa maqsadlarga ishlatiladi. Bundan ko'rinib turibdiki, suv qishloq xo'jaligida eng katta salohiyatga ega bo'lgan resurs hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda "Orol havzasi" degan tushuncha bor. Havza deganda, qaysi hududda yoqqan yomg'ir shu joyga kelib yig'ilsa shu mintaqaning havzasi deyiladi. Orol havzasiga Tojikiston, Qirg'iziston, Turkmaniston, O'zbekiston, Qozog'istonning Janubi va Afg'onistonning Shimoliy qismi kiradi. Shu joylardagi vujudga keladigan oqar suvlar miqdori 129 km³ ga teng. Ushbu oqar suvlarning 60 km³ O'zbekiston Respublikasi tomonidan foydalanilmoqda. Bundan tashqari respublikamizda yer osti suvlari ham mavjud bo'lib, ularning miqdori 6-7 km³ ni tashkil etadi. Bu suvlarning lalmikor yerlarni, sug'oriladigan yerlarga aylantirishda ahamiyati kattadir.

Daryolarda suvlarning miqdorini va oqish davrini o'rganish uchun juda ko'p gidrologik stantsiyalar tashkil etilgan bo'lib, suv sarfi va suv oqimini o'lchab turadi. Masalan, Amudaryoda bu ko'rsatkich 2500 m³ teng. Sirdaryoda esa ushbu ko'rsatkich 1200 m³ ni tashkil etadi. Bir yilda Amudaryodan 79 km³, Sirdaryodan esa 31 km³ suv oqib o'tadi. Shuning uchun bu ikki daryo suv oqimini o'rganish eng muhim masalalardan biridir.

Amudaryo va Sirdaryo suvlarining asosiy qismi Afg'oniston, Tojikiston, Qirg'iziston davlatlari tog'laridagi muzliklarda to'planadi. O'rta Osiyoda suvi ko'p bo'lgan Amudaryoning sug'orma dehqonchilikdagi o'rni alohida ahamiyatga molikdir. Bu daryoning suvi Dnepr daryosiga nisbatan 1,2 marta, Don daryosiga nisbatan esa 3 marta ko'pdir. Amudaryo Panj va Vaxsh daryolarning qo'shilishi natijasida paydo bo'ladi. Panj daryosi ulushiga 60%, Vaxsh daryosi xisobiga esa 40% Amudaryo suvi to'g'ri keladi.

O'zbekiston hududida u o'rta va past oqimlarda oqib o'tadi. Amudaryo asosan cho'l zonasidan oqib o'tadi. Uning o'zunligi 1415 kilometrni tashkil etadi

va Orol dengiziga borib quyiladi. Panj va Vaxsh daryosining qo'shilishidan keyingi 12 - kilometrda chap tomondan Afg'oniston hududidan Qunduzdaryo kelib qo'shiladi va 39 - kilometrda esa o'ng tomondan Qofirnigon va 136 - kilometrda o'ngdan Surxondaryo suvi Amudaryoga kelib quyiladi. Ta'kidlash joizki, Surxondaryo Amudaryoga o'z suvini quyadigan oxirgi daryo hisoblanadi, chunki, 136- kilometrda o'z suvini quyadigan Sherobod daryosi suvi kam miqdorni tashkil etadi. Zarafshon va Qashqadaryo suvlari gidrografik joylashuvi bilan Amudaryoga yetib bormaydi. Ohangaron daryosi suvi asosan muzliklardan iborat. Bu daryoda qor yomg'irdan hosil bo'lgan suvlar paxta va boshqa qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish uchun yetarli emas, chunki bu suv oqimlarini tartibga solish lozim. Oxangaron suvining yillik miqdori 125 km^3 tashkil etadi.

Suv oqimi tezligi esa $43 \text{ m}^3 / \text{sekundga}$ teng. Suv rejimi Toshkent suv ombori orqali tartibga solinadi. O'rta Osiyo daryolari uchun asosiy suv manbalari yilning sovuq paytida tog'da hosil bo'lgan tog'lar hisoblanadi. Toqqa chiqqan sari havo harorati pasayib boradi. Bu esa qor yog'ish va uni saqlash uchun qulay sharoit yaratib beradi. Olib borilgan tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, Sox, Isfara, Panj, Vaxsh daryolarining 25-30% suvi muzliklardan olinar ekan. O'rta Osiyo daryolari suvining o'rtacha 10% muzliklardan olinadi. Daryolarning yomg'irdan olinadigan suvlari (baland tog'lardan ya'ni o'zining dastlabki boshlanish suvini oladigan daryolarda) umumiy suv oqimining 1-2%ni tashkil etadi, ba'zida bu ko'rsatkich 1%ni tashkil etadi. Baland bo'lmagan tog'lardan va uning pastki qismlaridan olinadigan suvlar daryo suvlarining 10-15% ni tashkil etadi.

Daryo suvlari nafaqat sug'orma dehqonchilikni suv bilan ta'minlab qolmasdan, suv omborlarini ham suv bilan to'ldirib turadi. Bu esa o'z navbatida zarur yillik suv hajmini oldindan rejalashtirish va suvdan oqilona foydalanish va iste'molchilarni suv bilan ta'minlash imkonini beradi.

Daryoning suvi asosan sug'orish uchun ishlatiladi, bir qismi fil'tratsiya bo'lib, yerga shimiladi, bir qismi parlanib ketadi. Zarafshon daryosining suv oladigan maydoni 12300 km^2 ni tashkil etadi. Daryoning yuqori qismi matchi deb

ataladi. Dastlabki 300 km masofada Zarafshon daryosi chuqur eng qisqa bo'lgan vodiya oqib o'tadi. Vozaning tekis qismida Pandjakentning pastki qismidan (bu yerda daryo O'zbekiston xududidan tashqarida bo'ladi) to O'zbekiston xududiga qadar va undan keyin ham birorta irmoq qo'shilmaydi.

Daryodan sug'orish uchun olingan suv esa ko'payib boradi. Natijada Zarafshon daryosining suv hajmi kamayib boraveradi. Tog' qismida daryo oqimining umumiy hajmi $190 \text{ m}^3 / \text{sekundni}$ tashkil etadi. Zarafshon daryosining ko'p yillik o'rtacha sarfi daryoning quyi qismida Magidndarida $164 \text{ m}^3 / \text{sekundni}$ tashkil etadi.

O'rta Osiyoda Amudaryodan keyingi ikkinchi yirik daryo Sirdaryo hisoblanadi. Bu daryo O'zbekiston xududidan yuqori va o'rtacha oqimida oqib o'tadi. Sirdaryo, Norin, Qoradaryoning qo'shilishi natijasida paydo bo'ladi.

Sirdaryo 300 km masofada Farg'ona vohasidan oqib o'tadi. Bu yerda Chotqol, Qurama, Turkiston tog'larida paydo bo'lgan anchagina suv irmoqlari Sirdaryoga yetib bormaydi, chunki yerlarni sug'orish uchun foydalaniladi. Sirdaryo Farg'ona vodiysidan oqib o'tish jarayonida ko'pgina irmoqlar xususan chap tomondan Isfayram, Shoximardon, Sox, Isfara, Xodjabaqirgan, Oqsu, o'ng tomondan esa Podshoota, Kosonsoy, Chodaksoy, Rezaksoy, Sumsar xisoblanadi.

Norin va Qoradaryoning qo'shilgan joyidan boshlab, Sirdaryoning Orol dengizigacha bo'lgan o'zunligi 2212 km.ni tashkil etadi. Norin daryosining uzunligini ham olganda 2790 km.ga yetadi.

Sirdaryo o'rtacha suv olish balandligi bo'yicha Amudaryodan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Sirdaryo xavzasidagi yirik daryolar xususan Norin, Qoradaryo, Chirchiq, Sirdaryoning o'zi suvni qor va muzliklardan oladi. Ularda eng ko'p suv sarfi o'rtacha ko'p yillik ma'lumotlarga ko'ra iyun oyida kuzatilar ekan. Mart - iyun oylarida qorni erishi eng yuqori bo'lgan davrlarda Norin daryosining oqimi Farg'ona vohasida 44,9% yillik oqimini tashkil etadi. Sirdaryoda o'rtacha ko'p yillik suv sarfi Kal qishlog'ida $500 \text{ m}^3 / \text{sekundni}$ tashkil etadi. Daryoning Farg'ona vohasidan chiqish joyida, ya'ni qizil qishlog'ida 570, Chordara suv omborining yuqori qismida 720, Qizil-ordada 670, Kazalinskda $490 \text{ m}^3 / \text{sekundni}$ tashkil etadi.

Farg'ona voxasida Sirdaryoning eng yirik irmog'i Sox daryosi bo'lib, uning o'rtacha sarfi $42 \text{ m}^3 / \text{sekundga}$ teng.

Chirchiq daryosi Chotqol va Pskent daryolarining qo'shilishidan paydo bo'ladi. Bu daryolar suvni G'arbiy Tyan'-shan tog'laridan va qisman O'zbekiston tog'laridan oladi. Chirchiq daryosining uzunligi 161 kilometr bo'lib, uning o'rtacha suv oqimi hajmi 7,15 mlrd m^3 ga teng. Oxangaron daryosi kattaligi va suvning miqdori bo'yicha Chirchiqga nisbatan kichikroq daryodir. Suvni Chotqol va Qurama tog'laridan oladi.

Oxangaron daryosi ko'pgina irmoqlardan tashkil topadi. Pastroqda Turk qishlog'ida Oxangaron daryosi kengayib boradi va daryodan bir necha mustaqil ariqlar suv oladi. Pastroqda Chirchiq daryosidan suv oladigan Qorasuv kanali suvi ham Oxangaron daryosiga kelib qo'shiladi. Daryo suvlarining asosiy qismini erigan qor va muz suvlari tashkil etadi. Yomg'ir suvlarining tutgan o'rni uncha katta emas.

Markaziy Osiyo davlatlarining Sirdaryo va Amudaryo havzalaridan yillik suv olish imkoniyatlari bundan ma'lum bo'ladiki, O'zbekiston xududda xosil bo'ladigan jami suv miqdorining 63020 mln km^3 ni iste'molda ishlatib kelmoqda. 25490 mln km^3 Sirdaryo havzasiga, 37530 mln km^3 Amudaryo havzasiga to'g'ri kelmoqda.

Sug'orma dehqonchilikni suv bilan ta'minlashda magistral kanallarning tutgan o'rni kattadir. Ana shunday kanallardan biri kata Farg'ona kanalidir. Bu yirik suv inshooti xalq xashari yo'li bilan 5 oy mobaynida (1 avgustdan 26 dekabr 1939-yil) qurib foydalanishga topshirilgan. Kanalning uzunligi 270 kilometrni tashkil etadi. 1953-yildan 1962-yillar davomida kanalning qayta tiklashning birinchi bosqichi amalga oshirildi. Natijada Norin daryosining yuqori qismidagi suvning sarfi $98 \text{ m}^3 / \text{sekunddan}$ $150 \text{ m}^3 / \text{sekundga}$ yetkazildi. 1964-yilda katta Farg'ona kanalini qayta tiklashning ikkinchi bosqichi amalga oshirildi. Natijada kanaldagi suv hajmi ko'paydi va $211 \text{ m}^3 / \text{sekundga}$ yetdi.

Katta Farg'ona kanali 65 yildan buyon Respublikamiz sug'orma dehqonchiligiga xizmat qilib kelmoqda. Mana shu davr ichida qayta tiklandi.

Hozirgi paytda Norin daryosiga tutash joyda qurilgan betonlashgan bosh suv inshooti hatto suv kam bo'lgan yillarda ham daryoning 40%ga yaqin suvini olish imkoniga egadir. Suvni boshqarish avtomatlashtirilgan. Uning ya'ni tartibga solish samaradorligi 98%ni tashkil etadi.

Katta Farg'ona kanalini qurish 60 ming gektar yangi yerlarni o'zlashtirish imkonini berdi, 45 ming gektar yerning suv bilan ta'minlashni yaxshilashga zamin yaratdi.

Respublikamizdagi yirik magistral kanallardan biri Qarshi magistral kanalidir. Bu suv inshooti 1973 yilda qurilgan. Bu kanal 402 ming gektar yerni sug'orishga mo'ljallangan. Shundan 392 ming gektar O'zbekiston xududida, 10 ming gektari esa qo'shni Turkmaniston xududida. Daryodan suv olish 240 m^3 /sekundni tashkil etadi.

Qarshi magistral kanalining boshlang'ich qismida 78,4 kilometr uzunlikdagi masofada 6 nasos stantsiya o'rnatilgan bo'lib, suvni 132,2 metr balandlikka ko'tarib beradi. Qarshi magistral kanalining quyi qismiga Toshmarjon suv ombori qurilgan bo'lib, uning suv saqlash hajmi 1400 mln. m^3 ni tashkil etadi. Bu suv ombori mavsumiy suv oqimini tartibga solib turish uchun xazmat qiladi.

Markaziy Osiyodagi jami suv resurslari $133,64 \text{ km}^3$ ni tashkil qilib, Amudaryo va Sirdaryo havzvsidagi jami suv $109,3 \text{ km}^3$, yer osti suvlarini ishlatish 6 km^3 , kollektor – drenaj suvlarini ishlatish $18,27 \text{ km}^3$ dan iborat. Respublikamiz Janubiy mintaqalarida sug'orma dehqonchilikni suv bilan ta'minlashga mo'ljallab qurilgan kanallardan yana biri Amu- Buxoro mashina kanali hisoblanadi. Bu kanal Buxoro viloyatida 266,5 ming gektar Navoiy viloyatida esa 23,2 ming gektar yerni sug'orishga mo'ljallangan.

Amu-Zang kanali 1971 yilda qurilgan. Bu kanalning suv sarfi 20 m^3 /sekundni tashkil etadi. Amudaryodan ikkita nasos orqali suv olinib, Zang kanaliga quyiladi. Bu kanal Surxondaryo viloyatidagi sug'oriladigan yerlarni suv bilan ta'minlash uchun qurilgan. Amu-Zang kanalining uzunligi 56 kilometr. 1976-1978 yillar kanal qayta tiklandi va natijada suv sarfi 140 m^3 /sekundga yetkazildi. Ikkita

nasos stantsiya qurildi. Bu o'z navbatida suv ta'minotini yanada yaxshilash imkonini beradi.

2018-2019-yillarda irrigatsiya tarmoqlarini rivojlantirish va sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha davlat dasturiga muvofiq, kelgusi ikki yilda 1 ming 86 kilometr uzunlikdagi kanallar betonlashtirilib, 661 kilometr lotoklar yangidan bunyod etiladi. Shuningdek, 109 ta yirik gidrotexnik inshootlar quriladi va yangi nasos stansiyalari o'rnatiladi. Ana shu tadbirlarni amalga oshirish natijasida 1 million 200 ming gektar yerning suv ta'minoti yaxshilanadi. Eng asosiysi, yiliga 1 milliard 700 million kub metr suv tejaldi va 600 ming gektar yerning meliorativ holati yaxshilanadi.³

Suv xo'jaligi qishloq xo'jaligini, sanoat ob'ektlarini, maishiy xizmat korxonalarini, shaharlar va qishloqlarni, suv energetikasini, baliq xo'jaligini suv bilan ta'minlaydi. Bu tarmoq davlat boshqaruv organlari orqali boshqariladi ya'ni suv resurslarini hajmini aniqlash, rejalashtirish va tarmoqlar o'rtasida va undan samarali foydalanish to'g'risida hisob-kitob ishlari tegishli suv xo'jaligi davlat organlari orqali tashkil etiladi va boshqarilib boriladi.

Hozirgi paytda Respublikamizda qariyb 1500 mingga yaqin nasos stansiyalari mavjud bo'lib, ularga 55 mingdan ortiq nasos agregatlari o'rnatilgan. 4830 ta vertikal quduqlar, 50 dan ortiq suv omborlari (ularning suv saqlash hajmi 16,5 mlrd/ m³ ni tashkil etadi) mavjud.

1.3 Davlatlararo suv resurslarini boshqarish muammolari

Amudaryo va Sirdaryo xavzalarining mavjud suv xo'jaligi Markaziy Osiyo mintaqasini iqtisodiy rivojlantirish yo'llarini muayyan darajada belgilab beradi. Suv xo'jaligi tabiiy va xo'jalik inshootlari majmuidan iborat. Uning tarkibiga suv resurslarining xosil bo'lishi, unda oqimni o'zgarishi, suvdan foydalanuvchilarning

³ Mirziyoyev.Sh.M Risq-ro'zimiz bunyodkori qishloq xo'jalik xodimlari mehnatini ulug'lash, soxa rivojini yangi bosqichga ko'tarish-asosiy vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <http://www.uza.uz/uz/documents/rizq-ro-zimiz-bunyodkori-bo-lgan-qishloq-xo-jaligi-xodimlari-09-12-2017>

suv olishi va ularga suv yetkazib berish, elektr- energiyasi ishlab chiqarish, suv resurslari va ularning sifatini nazorat qilish xamda xisobga olishni ta'minlaydigan inshootlar kiradi. Amudaryo xavzasidagi barcha davlatlararo (transchegara) suv resurslari, jumladan ustki va qaytadigan suvlar boshqaruvga olingan.

Orol dengizi xavzasida suv resurslarini oqilona boshqarish va foydalanish muammosi o'tgan asrning 70-80 yillarida paydo bo'lgan. Amudaryo va Sirdaryo xavzalarida yagona avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini tashkil etish keyinchalik suvni boshqarish va "Amudaryo", "Sirdaryo" va "Zerdolvodxo" xavza suv xo'jaliklari birlashmalariga taqsimlash borasidagi aniq vazifalarni takomillashtirish imkonini berdi. Bu esa yaxshi samara va foyda berdi. Birinchidan, suv resurslaridan foydalanishni xisobga olish va nazorat qilishning oddiy tartibi joriy etildi. Ikkinchidan, daryoda hamda respublikalararo kanallarni xisobga olinmagan suv isrofgarchiliklari kamaydi. Boshqaruv tizimining juda qulaylashuvi barcha tomonlarga ma'qul keldi va mintaqa davlatlari o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro tushunish hamda ishonishga erishishni ta'minladi. Qadimda xar bir respublikaning suv ulushi Sobiq ittifoq Gosplani tomonidan bosh rejalar asosida tasdiqlanadigan suvni taqsimlash kvotalariga muvofiq belgilanar edi. Suvni taqsimlash samaradorligini baxolash uchun xavzada jami suv taqchilligining eng kam miqdori va xalq xo'jaligiga suv yetkazib bermaslikdan ko'rilgan eng oz zarar mezon qilib olingan. Xavza suv xo'jaligi birlashmasi gidrologik bashoratlarga qarab, xar bir mamlakat uchun suv limitini 10 foizgacha oshirishi yoki kamaytirishi mumkin edi. Biroq bu xolat xar bir mamlakatda suv sifati va suvdan foydalanish talablariga javob bermasdi. Amaliyotda Orol dengizi va Orolbo'yiga suv yetkazib berish "boriga - baraka" tamoyiliga asoslangan edi.

Amudaryo va Sirdaryo xavzalari suv xo'jaligi avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining asosiy maqsadi suv iste'molchilari va suvdan foydalanuvchilar talablari xisobga olingan xolda xamda xalq xo'jaligi samaradorligiga erishish uchun ekologik me'yorlarga rioya qilish orqali suv resurslarini miqdori va vaqt bo'yicha qulay taqsimlash orqali barcha xududlarni suv bilan oqilona ta'minlashdan iborat edi. Tizim daryolar del'tasiga sanitariya suvlarini quyishni ta'minlashi va bunda

yuvish va vegetatsiya davrida sug'orish ishlarining to'xtashi xamda gidroenergetika qurilmalari ishlashining buzilishiga yo'l qo'ymasligi lozim edi.

Mustaqillikka erishilgach, Markaziy Osiyodagi beshta davlat raxbarlari tomonidan Orol dengizi xavzasida davlatlararo suv resurslarini boshqarishning mintaqaviy tuzilmasi takomillashtirildi hamda rivojlantirildi. Markaziy Osiyo davlatlarining muayyan maqsad yo'lida kelishilgan xatti-xarakatlarining birinchi bosqichida 1992-yili (Olmaota shaxri) Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi va uning ikkita organi - "Amudaryo" va "Sirdaryo" xavza suv xo'jaligi birlashmalari tashkil etildi. Beshta Markaziy Osiyo davlatlari raxbarlarining Qizil O'rdadagi uchrashuvi (1993-yil 26-mart) boshqaruvning tashkiliy-xuquqiy tuzilmasini tashkil etishga asos soldi. Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi sobiq ittifoq Suv xo'jaligi vazirligidan xar ikki xavza suv resurslarini boshqarishni bevosita qabul qilib oldi. Xavza suv xo'jaligi birlashmasining nizomi tasdiqlandi, Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi to'g'risida nizom va boshqa muxim xujjatlar ishlab chiqilib, tasdiqlandi.

Teng asosda Orol dengizi bo'yicha davlatlararo kengash va muntazam faoliyat ko'rsatadigan ijro qo'mitasini tashkil etish to'g'risida qabul qilingan qaror xamda bosh rejalarda e'tiborga olingan "mavjud suvdan foydalanish" bo'yicha suvni taqsimlash prinsiplarini tasdiqlash Qizil o'rda uchrashuvining asosiy natijasi bo'ldi. Bundan tashqari Orol dengizi muammolari bo'yicha davlatlararo kengash xuzurida Barqaror rivojlanish davlatlararo komissiya va Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi tashkil etildi, "Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi to'g'risida" nizom qabul qilindi. Toshkentda beshta davlat raxbarlari ishtirokida o'tkazilgan forumda (1993-yil 13-iyul') o'z faoliyatini Ijro qo'mitasi va davlatlararo komissiyalar orqali amalga oshiradigan Davlat raxbarlarining Orol dengizi xavzasi muammolari bo'yicha davlatlararo kengashi to'g'risidagi nizomlar tasdiqlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari raxbarlarining 1994-yil yanvarda Nukus shaxrida bo'lib o'tgan uchrashuvida Jaxon bankining Orol dengizi xavzasi bo'yicha dasturi

qabul qilindi. Dasturning birinchi bosqichiga Orol dengizi xavzasida atrof-muxitni muxofaza qilish sohasida dasturlar majmuini amalga oshirish vazifasi kiritildi, jumladan:

- Orol bo'yida suv resurslari va ulardan foydalanish monitoringining mintaqaviy tizimini tashkil etish;
- Suv sifatini yaxshilash tartiblarini ishlab chiqish va suvga zarar yetkazishning barcha turlarini cheklash;
- "Toza suv" va "Salomatlik" davlatlararo dasturlarini amalga oshirish oqimlar hosil bo'ladigan xududlarda aholini sog'lomlashtirishga doir tadqiqotlar o'tkazish va chora-tadbirlarni amalga oshirish; choralari ishlab chiqildi.

Bundan tashqari "Sirdaryo" va "Amudaryo" suv xo'jaligi birlashmalarini texnik vositalar bilan jixozlash. Orol dengizi xavzasi dasturining mintaqani 2010-yilgacha rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab bergan ikkinchi bosqichi davlat xabarlar tomonidan 2003-yilning avgustida Dushanbeda o'tkazilgan. Xalqaro suv forumida ma'qullandi. Bunda quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga olgan:

- Orol dengizi xavzasida suv resurslarini birgalikda boshqarishning kelishilgan mexanizmlarini ishlab chiqish;
- Suv xo'jaligi ob'ektlarini qayta tiklash va suv-yer resurslaridan foydalanishni yaxshilash;
- Atrof-muxit monitoringi tizimini takomillashtirish va tabiiy ofatlarga qarshi kurash dasturlarini amalga oshirish;
- Davlatlararo tashkilotlarning moddiy-texnika va huquqiy bazasini mustahkamlash; mintaqa ijtimoiy muammolarini hal qilish va Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiyoti tarmoqlarida suvdan oqilona foydalanish bo'yicha loyihalar majmuini ishlab chiqish;
- Oqimlar hosil bo'ladigan xududlar tabiatini muxofaza qilish tadbirlari, shu jumladan axoli qo'rg'onlari va tabiiy ekotizimlarni sanitariya-ekologik jixatdan sog'lomlashtirishga oid dasturlarni amalga oshirish belgilab olindi. Bularga quyidagilar kiradi.:

- Orol dengizi xavzasida barqaror rivojlanish kontsepsiyasini ishlab chiqish;
- Cho'llanishga qarshi kurashish bo'yicha mintqaviy xarakat dasturlarini amalga oshirishda ko'maklashish;

Amudaryo va Sirdaryo etaklarida minerallashtirilgan kollektor-drenaj suvlaridan foydalanishni oqilona tashkil qilishdan iboratdir. Orol dengizi xavzasidagi davlatlarning tarkibiy qismi xisoblangan Orol dengizini qutqarish xalqaro jamg'armasi ushbu dasturni amalga oshirishni muvofiqlashtirish, jaxon hamjamiyati e'tiborini Orol dengizi suv satxining pasayishi sababli yuzaga kelgan ekologik falokatga jalb qilish va axvol og'ir xudud sifatida belgilangan qirg'oq; bo'yidagi yerlar muammolarini hal qilish maqsadida mablag' sarflash uchun bosh tashkilot sifatida ta'sis etildi.

Orol dengizini qutqarish xalqaro jamg'armasi dastlabki paytlarda xalqaro xamjamiyatning (EI-Tasis, BMTTD, Jaxon banki va boshqalar) bevosita qisman ko'rsatgan ko'magida nisbatan samarali ishlagan bo'lsa, 1999-yil o'rtalaridan boshlab uning mintaqaviy darajadagi faoliyati ancha susaydi, xalqaro moliyaviy yordam xam kamaydi.

Biroq Markaziy Osiyo davlatlari raxbarlari Orol dengizini qutqarish xalqaro jamg'armasini va uning Ijro qo'mitasini qayta tashkil etish xamda tiklash choralarini ko'rdi. Shundan so'ng mazkur tashkilotlar Orol dengizi xavzasi dasturi loyixalarini amalga oshirish ishlarini davom ettirildi.

Jamg'armaning yangi tarkibiga Barqaror rivojlanish bo'yicha komissiya, Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi va ularning bo'limlari kiritildi. Ushbu sxemaga muvofiq besh davlat bosh vazirlarining o'rinbosarlari Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi boshqaruvi a'zolari xisoblanadi. Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi Ijro qo'mitasini doimiy rais boshqaradi.

Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi- davlatlararo suv resurslarini boshqarish, suvni taqsimlash, suv monitoringi, suv resurslari bilan bog'liq tadbirlarni davlatlar darajasida qo'llab- quvvatlash uchun mas'ul maslaxat organidir. Uning faoliyati beshta a'zo davlat tomonidan kelishilgan qarorlarni qabul qilish, qarama-qarshiliklar extimolini kamaytirishga yordam beradi. Barqaror

rivojlanish bo'yicha komissiya esa barqaror rivojlanishga erishishga qaratilgan tabiatni muxofaza qilish siyosatini muvofiqlashtiradi, tabiatdan barqaror foydalanish, atrof-muxitni muxofaza qilish bo'yicha belgilangan vazifalarni bajarish uchun milliy strategiya hamda dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul. Ilmiy-axborot markazlari tegishli tuzilmalarga ilmiy-axborot, tahliliy va metrologik masalalarda yordam beradi, barcha manfaatdor tomonlar imkoniyatini va xabardorligini oshirish, ular o'rtasida axborot almashishga ko'maklashadi.

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasining yangi tuzilmasini shakllantirish tasarrufidagi tashkilotlar yuridik shaxslar xisoblanishi, xalqaro tashkilotlar maqomiga ega bo'lishida ijobiy rol o'ynaydi. Bu Davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi va uning xavzaning suv resurslarini boshqarishga javob beradigan ijro organlariga xam to'liq taalluqlidir.

Havza suv xo'jaligi birlashmalari, Orol dengizi xavzasining mulk xuquqi va infratuzilmasini boshqarish milliy xukumatlar hamda xavza suv xo'jaliklari birlashmalari o'rtasida taqsimlangan. Mintaqada davlatlararo muvofiqlashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasi raxbarligida suvni davlatlararo taqsimlashni limitlashni amalga oshiradigan "Amudaryo" va "Sirdaryo" xavza suv xo'jaligi birlashmalari asosiy tuzilmalar xisoblanadi. Uning mintaqaviy infratuzilmasi beshta davlat tomonidan gidrotexnik inshootlar, jumladan daryodan suv oladigan asosiy inshootlar, inshootli gidrouzellar, davlatlararo kanallar, gidropostlar va boshqa suv fondlaridan vaqtinchalik foydalanishga berilishi orqali tashkil etilgan. Qolgan barcha infratuzilmalar, jumladan xo'jaliklar darajasigacha milliy maqomga ega. Havza suv xo'jaliklari birlashmasi, suv olish inshootlari, gidrouzellar va davlatlararo kanallardan foydalanishni xududiy boshqarish xuquqiga ega. Birlashma o'z faoliyatida xavza suv xo'jaliklari birlashmasi Nizomi, Davlatlararo muvofiklashtiruvchi suv xo'jaligi komissiyasiga a'zo davlatlar komissiya amaldagi qonunchiligi, qarorlari, Shuningdek, bitimlar, bayonnomalar xamda boshqa me'yoriy xujjatlarga tayanib ish ko'radi.

Suv xo'jaligini boshqarish borasidagi qiyinchiliklar boshqaruv inshootlari Markaziy Osiyoning beshta suveren davlatining bepoyon xududlarida joylashgani va bir-biridan olisligi bilan bog'liq, Suv xo'jaligi boshqaruv inshooti sifatida quyidagi xususiyatlarga ega:

- suv xo'jaligi axvoliga oid katta xajmdagi rang-barang axborotlar;
- boshqaruv organlari va axborot manbalarining ko'pligi hamda keng xududda joylashgani;
- gidrologik axborotlarning mavxumlik xususiyatlari;
- suv xo'jaligida ishtirokchilarining boshqaruvga oid talablarining zidligi;
- suv resurslaridan foydalanish bo'yicha yagona iqtisodiy mezonlarning mavjud emasligi.

“Amudaryo” va “Sirdaryo” xavza suv xo'jaligi birlashmalari o'z faoliyatida uchta asosiy tamoyilga amal qiladi: suv resurslarini suv olishning belgilangan limitlariga muvofiq to'g'ri taqsimlash; xar qanday vaziyatda ishtirokchilar va suvdan foydalanuvchilar o'rtasida xaqqoniylik xamda do'stona munosabatlarni mustahkamlash prinsipiga amal qilish; suv - mintaqada barcha manfaatdor tomonlar va davlatlar sa'yi-xarakatini birlashtiruvchi barqarorlik omili.

Biroq suvni davlatlararo taqsimlashning ijro organi xisoblangan xavza suv xo'jaliklari birlashmasining imkoniyati quyidagi sabablarga ko'ra cheklangan:

- davlatlararo ahamiyatga ega suv olish inshootlarining bir qismi, Shuningdek, suv omborlariga ega muxim gidroenergetika majmualari milliy organlar boshqaruvida;
- Havza suv xo'jaligi birlashmasi yer osti suvlari va qaytadigan oqova suvlar olish miqdori, jadvali, Shuningdek, suv resurslari sifatini nazorat qilmaydi;
- daryolarning asosiy kundoqlarida uskunalar va suv olish inshootlari eskirgan;
- Xavza suv xo'jaligi birlashmasi va milliy gidrometeorologiya xizmatlarining o'zaro xamjixatligini muvofiqlashtirish talablar darajasida emas;
- daryolar xavzalarini boshqarish va ulardan foydalanishning aniq qoidalari yo'q; davlatlararo ahamiyatga ega daryolarning qo'riqlanadigan xududlari

belgilanmagan va hokazolar. Mavjud cheklovlar va o'zgarishlar sharoitida Suv xo'jaligi majmuini boshqarish borasidagi qiyinchiliklar xavza suv xo'jaligi birlashmalari roli va vakolatini kuchaytirish, toshqinlar, qurg'oqchilik va boshqa favqulodqa vaziyatlarda zarar hamda xavflarni kamaytirgan xolda, Suv xo'jaligi majmuidan ishonchli foydalanish va boshqarishni ta'minlash uchun mazkur tizimning imkoniyatlarini oshirishni talab qiladi. Orol bo'yidagi vaziyatni barqarorlashtirishga oid hamkorlikdagi davlatlar tomonidan Orol dengizi del'tasi va ko'rib qolgan tubida izdan chiqan tabiiy ekotizimlarni qayta tiklash borasida ko'rilgan chora-tadbirlar mintaqadagi suv resurslarini boshqarish va foydalanishga oid o'zaro kelishilgan say-xarakatlar, birgalikdagi tashabuslarni amalga oshirish uchun hamkorlikdagi imkoniyatlarni o'zida namoyish etdi.

Markaziy Osiyoning beshta davlati Orolbo'yini mustaqil suvdan foydalanuvchi sifatida tan oladi. Orolbo'yining suvga bo'lgan ehtiyoji barcha davlatlar ehtiyojlari singari xisobga olinadi. Shu bois bu ehtiyoj daryo oqimining yillik o'zgarishi xisobga olingan xolda Orolbo'yini qutqarish bo'yicha davlatlararo kontsepsiya asosida belgilanishi kerak. Ayni paytda barcha davlatlar del'tada suv sifatini, bioxilmaxillik va biounumdorlikni saqlashga oid talablarni muvofiqlashtirishni e'tirof etadi.

Barcha davlatlar Orol dengizini kelajakda avvalgi darajada qayta tiklash oson emasligini tan olgan. Jaxon banki va boshqa tashkilotlarning fikricha, dengizni 25 yildan so'ng qayta tiklash uchun xar yili 75 milliard m³ suv talab etiladi (Sirdaryo va Amudaryoning jami yillik oqimining yarmidan ko'pi). Buni amalga oshirishning iloji yo'q. Negaki, buning uchun Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ko'plab sug'orish tizimlarini yopishga to'g'ri keladi. Orol dengizi suv sathining kamayishiga sabab bo'ladigan xalokatli ta'sirlarni pasaytirish uchun Orol dengizi xavzasi dasturiga keng ko'lamli ishlar va tub o'zgarishlarni amalga oshirish tavsiya etildi.

Orol bo'yini qutqarish bo'yicha davlatlararo kontsepsiya 1994 yilda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari tomonidan qabul qilingan davlatlararo kontsepsiyada hozirgi sharoitda Orol dengizini qayta tiklash imkoniyati yo'qligi va Orol dengizini

emas, balki Orolbo'yini qayta tiklash muhim vazifa ekani e'tirof etilgan. Kontsepsiyaning IV-bo'limida "Orolbo'yida izdan chiqqan tabiiy rivojlanishni qayta tiklash barqarorligini ta'minlaydigan faol boshqariladigan xududiy ekotizimni tashkil etish zarurligi" qayd etilgan. Dengiz deltasi va ko'rinib qolgan tubida sun'iy ekotizimlarni yaratish ishlari Orol bo'yida tabiatni muhofaza qilish tadbirlari nuqtai nazaridan ustuvor vazifa hisoblanadi va quyidagilarni o'z ichiga olishi lozim:

- Amudaryoning qurib qolgan tubida boshqariladigan suv xavzalari tizimini tashkil etish va kichik dengizning bir qismini Sirdaryo uchun boshqarish;
- Ko'chma qumlarni mustahkamlash bo'yicha fitomeliorativ ishlarni o'tkazish;
- Kollektor-drenaj suvlarini dengiz akvatoriyasiga qumlar tarqaladigan xududlar orqali oqizish kabilar kiradi.

Bundan tashqari Orol dengizi akvatoriyasining tarkibida tuz ko'p bo'lgan hudud, uning tuz va suv mutanosibligi bashorati, suv sathi, shuningdek qirg'oq bo'yidagi tumanlar zararlanishining oldini olish choralari belgilanishi lozim.

Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi va mintaqa davlatlari say-xarakatlari bilan qirg'oq bo'yi tumanlari, chunonchi, Mo'ynoq; va Orol tumanlarida ijtimoiy-iqtisodiy ahvolni yaxshilash, sog'liqni saqlash hamda ichimlik suv ta'minotini rivojlantirishga doir tadbirlar o'tkazilmoqda. Bu ishlarning bir qismi turli donor tashkilotlar, birinchi navbatda Jaxon banki ko'magida mintaqa davlatlari mablag'lari xisobidan amalga oshirildi. Bundan tashqari davlat mablag'lari evaziga mahalliy suv xavzalarini tashkil etish va Amudaryo del'tasida suvdan foydalanish tizimini tartibga solish bo'yicha gidrotexnik inshootlarni barpo qilish loyixalari ishlab chiqilib, ijrosi ta'minlanmoqda. Germaniyaning GTZ agentligi dengizning qurib qolgan tubida ixota o'rmonlari mintaqasini tashkil etish ishlariga katta hissa qo'shdi va qo'shmoqda.

Shubxasiz, bu ishlarning barchasi Orol fojiasi oqibatida ko'rilgan zararga nisbatan kam. Ayrim mo'ynoqliklarning fikricha, ularga Amudaryo orqali keladigan suv baribir balqchilikni qayta tiklash uchun yetmaydi. Ayni paytda,

O'zbekiston va Qozog'iston bevosita manfaatdor tomonlar sifatida kelajakda tegishli himoya ishlarini amalga oshirish borasidagi ustuvor yo'nalishlar hamda imkoniyatlarni aniqlashga xarakat qilmoqda.

Orolbo'yining yaqin kelajakdagi suvga bo'lgan extiyoji yiliga 8 km³ va Amudaryo xamda Sirdaryo xavzalari uchun yiliga 5 km³ deb taxmin qilinmoqda. Uzoq kelajakda esa (2025 yil) bu oqim kamida yiliga 11 km³ va 8 km³ga ko'payishi lozim. "Amudaryo" xavza suv xo'jaligi birlashmasi mutaxassislari Orolbo'yida suv ekotizimlarining ekologik barqarorligini ta'minlash uchun xukumatlararo shartnomalarda sersuvlik darajasi turlicha bo'lgan yillarda daryo deltalariga suv quyishning eng ma'qul ulushi hamda tartibini ko'zda tutishni tavsiya qildi. Bundan ko'zlangan maqsad suvning keskin taqchilligi yuzaga kelgan yillarda baliqlar, shuningdek, suv flora va faunasining boshqa turlarini saqlab qolish uchun suvning miqdorini kafolatlashdan iborat.

II-BOB. NAMANGAN VILOYATI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA KOSONSOY SOY DARYO SUVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI

2.1. Kosonsoy tumanining tabiiy sharoiti va resurslarining qishloq xo'jaligi rivojlanishida o'rni va ahamiyati

Konsoy tumani Farg'ona vodiysining tog'li tumanlaridan biri hisoblanadi. Tumani Namangan viloyatining shimolida joylashgan bo'lib, 1926-yil 29-sentyabrda tashkil topgan, 1964-yil 24-dekabrda Chust tumani bilan qo'shilgan va 1973-yil 28-dekabrda yangidan tashkil qilinadi. Namangan viloyatining shimoliy qismida dengiz sathidan 790 m balandlikda Qoratov tog'i etaklaridan Namangan shahriga qadar (32 km) vertikal yo'nalishda joylashgan. Janubda Namangan shahri, sharqda Yangiqo'rg'on tumani, janubi-g'arbda Chust tumani, shimol va g'arbda Qirg'iziston Respublikasining Ola-Buqa tumani bilan chegaralanadi. Maydoni 0,51 ming km² (viloyat hududining 6,85%), aholisi 195.9 ming kishi (viloyat aholisining 7,4%). Shahar aholisi 118,2 ming (67,2%) va qishloq aholisi 77,8ming kishi (33,8%). Aholi zichligi har bir km²ga o'rtacha 379,2 kishi to'g'ri keladi va viloyat tumanlari o'rtasida 8-o'rinda turadi. Kosonsoy tumani nafaqat Farg'ona vodiysi, balki Markaziy Osiyodagi eng qadimgi sug'orma dexqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik rivojlangan tumanlardan biri. Kosonsoy tumani tarkibiga tuman markazi – Kosonsoy tumani markazi Kosonsoy shahri bo'lib, tuman hududida 7 ta qishloq fuqarolar yig'inlari va 60 ta mahalla fuqarolar yig'inlari mavjud. Shundan 16 ta mahalla fuqarolar yig'inlari tuman markazida, 44 tasi esa qishloqlarda joylashgan.

Konsoy tumani qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan agrar islohotlar mamlakatning mustaqilligini mustaxkamlash va uning ijtimoiy-iqtisodiy barqaror taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan. Bunga erishishda boshqa omillar qatorida Respublikamizda olib borilayotgan islohatlar qishloq xo'jaligida olib borilishi bilan Kosonsoy tumani qishloq xo'jaligida mulkdorlar sinfini shakllantirish va rivojlantirish muxim rol o'ynaydi. Shu bois xam respublikamizda mustaqillikning ilk kunlaridan boshlab tuman qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarini tashkil

etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Kosonsoy tumanida qishloq xo'jaligini bozor munosabatlariga xos ravishda islox qilish eng dolzarb masala ekanligini bilan xarakterlanadi. Tuman sug'orish tarmoqlarida Kosonsoy daryosi unda qurilgan suv omborining ahamiyati katta. Qishloq tumanlarida hokimlarning qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari lavozimi joriy qilindi. O'zbekiston Fermerlari kengashi O'zbekiston Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi sifatida qayta tashkil etildi. ⁴

Kosonsoy tumaninig janub tomonidan shimol tomonga absalyut balandligi Chotqol tog' tizmalarida, shimoliy sharqiy qismida 1000 metrgacha bo'ladi. O'rtcha absalyut balandligi 890 metr. Tumanda Chotqol tog' tizmalarining sharqiy yon bag'irlarida joylashgan bo'lib, o'simliklarni vegetatsiya davri viloyatimizning boshqa tumanlariga qaraganda kamroqdir, ya'ni tumanda vegetatsiya davri 219 kun. Kosonsoy tumani chegarasining umumiy uzunligi 144,1 km. Qirg'iziston Respublikasi bilan chegara uzunligi 50,56 km. Yangiqo'rg'on tumani bilan 37,16 km, Namangan tumani bilan 10,16 km, To'raqo'rg'on tumani bilan 34,94 km, Chust tumani bilan esa 11,28 km, masofada chegaralanadi.

Tumanning geologik tuzilishi relefi, Farg'ona vodiysini uzoq geologik o'tmishda yer po'stining cho'kishi natijasida vujudga kelgan. Bu vodiyni geologik tarixiga ham bevosita bog'liqdir. Vodiya quruqlik bir davrda hosil bo'lmagan. Uning atrofidagi tog'lar Paleozoy erasidan boshlab paydo bo'lgan, boshqa qismi esa mezozoy erasidan boshlab shakillangan. O'sha davrgacha Markaziy qismi adirlar suv ostida bo'lan. Gertsen tog' burmalanishda tog'larning ko'tarilishi bilan Tyan-shan tog' tizmalari ham ko'tarila boshlagan. Ana shu tog'larning ko'tarilishi natijasida Farg'ona botig'i vujudga kelgan. Mezozoy erasida vodiya g'arbda joylashgan Tetiz dengizi vodiya kira boshlagan

⁴ Mirziyoyev.Sh.M Risq-ro'zimiz bunyodkori qishloq xo'jalik xodimlari mehnatini ulug'lash, soxa rivojini yangi bosqichga ko'tarish-asosiy vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <http://www.uza.uz/uz/documents/rizq-ro-zimiz-bunyodkori-bo-lgan-qishloq-xo-jaligi-xodimlari-09-12-2017>

Kosonsoy tumaning asosiy qismi mezozoy erasida ko'l bo'lgan deb taxmin qilinsa bo'ladi, chunki hozir Tergachi qishlog'ida qazib olinayotkan neft va gaz bundan dalolat beradi. Mezozoy va paleozoy eralarida Chotqol tog' tizmasi yemirilgan, neogen davrida esa burmalanishlar yana kuchaygan. Al'p tog' burmalanishida Tyan-shan' tog' sistemasiga kiruvchi Chotqol tog'lari qayta ko'tarilgan va dengiz ko'llar chekinib tuman xududi quruqlikka aylangan. Insonning xo'jlik faoliyati tufayli botqoqliklar, sho'rxok yerlar o'zlashtirildi. Tuman xududi asosan kaynazoy erasining to'rtlamchi davr jinslari bilan qoplangan.

Kosonsoy vodiysining rel'efi uncha tekis bo'lmagan baland- past tekisliklardan iborat. Tumanning markaziy qismidan Chotqol tog' etaklaridan janubga qarab Kosonsoy soyi oqib o'tadi. Bu soy tumanning eng apsalyut balandligi past joylardan oqib tushgan. Tuman dengiz satxidan balandligi ana shu soydan sharqqa va g'arbga qarab ortib boradi.

Kosonsoy tumaning shimoliy sharqiy qismida Tyan'-shan' tog' sistemasidagi Chotqol tizmasi joylashgan. Bu tog'ning Kosonsoy xududisida joylashgan qismning absalyut balandligi 1000 metrdan ortadi.

Chotqol tog' tizmasidan sharqdan va janubiy sharqda inson faoliyati ta'sirida tekislanib ketgan tekisliklar mavjud. Bu yerlardan antropogen landshaft tiplarini ko'plab uchratish mumkin. Bu tekisliklarning dengiz satxidan balandligi 500 – 700 metr bo'lib, tog' etaklaridan soyga qarab pasayib boradi. Kosonsoyning shimoliy qismida ham, absalyut balandligi 1000 metrdan ortiq qir va tog' oldi tepaliklari shakillangan.

Kosonsoy tumanining reliefi, iqlimi, tuprog'i, o'simliklariga asoslanib quyidagi tabiiy geografik rayonlarga bo'linadi:

1. Chotqol tog' oldi tabiiy geografik rayonlari.
2. Mug' – qisiq tabiiy geografik rayonlari.
3. Qo'qumboy massivi tabiiy geografik rayonlari.
4. Soy bo'yi tabiiy geografik rayonlariga ajratish mumkin.

1. Tog' oldi tabiiy tumani Kosonsoy tumanining shimoliy tomonidan janubiy g'arbga, Chotqol tog' tizmasi bo'ylab tizilgan. Bu tumanning ustki qismi asosan cho'qindi jinslaran iborat, ko'p joyi toshloqdir. Bu tabiiy tumanning iqlimi Kosonsoyning boshqa tabiiy tumanlaridan farq qiladi. Iqlimi bir oz sovuq, salqin, yoz oylarida issiq, yog'ingarchilik asosan bahor oylarida ko'proq yog'adi. Tuprog'i bo'z va qo'ng'ir hamda tog' oldi tuproqlari, o'simligi: gulbarra, do'lana, namatak, hayvonlari: bo'ri, toshbaqa, tulki, kaklik yashaydi.

2. Mug' – qisq tumani Kosonsoyning shimolida joylashgan bo'lib, shimoldan Ala - buqa tumani, sharqdan Yangiqo'rg'on tumani bilan chegaradosh. Bu tuman qir va adirlardan iborat. Tuprog'i och va bo'z tipik tuproqdir. O'simliklardan shuvoq, yang'oq sirach va boshqalar o'sadi. Hayvonlardan tulki, quyon, toshbaqa va ilonlar yashaydi.

3. Qo'qumboy massivi tabiiy geografik rayonlari, Qo'qumboy massivida tumanning janubiy va janubiy g'arbida joylashgan, asosan adirlardan iborat. Yog'ingarchilik miqdori kam, iqlimi quruq, yozda havo temperaturasi yuqori bo'ladi. Tuprog'i asosan tipik bo'z tuproqdir, Qo'qumboy massivida ko'p yerlar qishloq xo'jalik uchun o'zlashtirilgan.

4. Soy bo'yi tabiiy geografik rayoni, shimoldan janubga qarab Kosonsoy soyi bo'ylab cho'zilgan. Iqlimi salqinroq, qishda mo'tadil, tuproqlari shimol qismida, ko'k tusli bo'z tuproq, markazda o'tloq, qora tusli o'tloq – tuproq, janubda tipik va och tusli bo'z tuproq. Kosonsoy tumanining asosiy foydalanadigan qismi ana shu tabiiy tumanda joylashgan.

Bundan tashqari tumanda Yertikan adiri, uning sharqida, soyning chap soxilida Saroson adiri, Dasht qiri, Qo'qumboy adirlari bor. Bu adirlar Mezozoy erasida va paleogen davrida Farg'ona vodiysida joylashgan Tetiz dengizining chekinishi natijasida hosil bo'lgan, cho'kindi jinslardan tashkil topgan.

Kosonsoy tumanining iqlimini xosil bo'lishida juda ko'p omillar mavjud. Tumani shimoliy va g'arbiy qismi rel'efi asosan tog'lik va balandliklardan iboratdir. Bu esa iqlimga juda katta ta'sir qiladi. Shimol va g'arbdan keladigan

sovuq havo massalarini hamda qattiq shamollarini to'sib qo'yadi va ko'p ta'sir etishga yo'l qo'ymaydi.

Tumanning viloyatdagi boshqa tumanlarga qaraganda salqin, sharqiy va janubiy tomoni ochiq bo'lganligi sababli bemalol havo massalari kirib keladi. Tuman iqlimini xosil bo'lishida Kosonsoyning shimoliy qismida joylashga O'rta-To'qay suv omborini ham ta'siri kattadir. Kosonsoy tumanining baland relyefda joylashganligi ham bunga sabab bo'ladi (1-jadval).

1-jadval

Kosonsoy tumanidagi yog'in miqdori.

Balandli gi	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	Yillik yog'in
890	30	25	40	42	46	23	23	30	30	25	25	28	240

Jadval: Namangan viloyati suvxo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, yog'ingarchilikni katta miqdori qish, bahor, kuz mavsumlariga tegishlidir. Yoz oylarida yog'ingarchilik kam bo'ladi. Bahor oylari shimoldan, shimoliy g'arbdan sovuq havo oqimi kelishi tufayli sel va chaqmoq hodisalari bo'lib turadi. Yil davomida 4-5 marta kuchli jala yomg'ir kuzatiladi. Yiliga 1-3 marta sel kelishi kuzatiladi. Kuchli yomg'ir 1-2-5 soatgacha davom etishi mumkin. Kosonsoy tumanining iqlimi keskin kontinentaldir, biz oylarni ko'rib chiqqanimizda yanvar oyi eng sovuq oy xisoblanadi. Eng issiq oy iyuldir. Iyul oyida havo namligi 50-60 %ni tashkil qiladi.

Yillik shamolning o'rtacha tezligi 2.6 m/sekundga tengdir. Kosonsoyda maksimal temperatura 46% - ni, minimal esa – 27% -ni tashkil qiladi.

Geografik o'rniga ko'ra asosan adir va tog'li mintaqada joylashganligidan o'simliklardan vegestatsiya davri Namangan viloyatining boshqa tumanlariga qaraganda kamroq bo'lib, 219-222 kunga teng. Tuman iqlimi keskin kontinentalligidan tabiiy sharoit xo'jalikni taraqqiy etishi, ayniqsa qishloq xo'jaligi soxasini rivojlanishida juda ko'p qiyinchilik va muammolarni yuzaga keltirgan.

Tumanning katta qismi adirliklardan (Yertikan, Sarson, Dalqir, Qo'qumboy, Ilonqir adirlari) tashkil topganligi keyingi 20 – yil davomida tuman tabiiy sharoitiga antropogen ta'siri kuchayishiga sabab bo'ldi. Bu adirlar o'zlashtirilib qishloq xo'jaligini paxtachilik, bog'dorchilik, sabzavotchilik va g'allachilik sohalari rivojlantirildi (2-jadval).

2-jadval.

Kosonsoy tumanidagi qishloq fuqorolar yig'inidagi sug'oriladigan maydonlar.

№	Qishloq Fuqorolar Yig'ining nomi.	Sug'oriladigan maydonlar (gek. Hisobida)
1	Isparon Q.F.Y	649
2	Go'rmiron Q.F.Y	1362
3	Namuna Q.F.Y	1738
4	Dehqonobod Q.F.Y	1742
5	Tergachi Q.F.Y	1250
6	Rovot Q.F.Y	950
7	Yangi Hayot Q.F.Y	967
8	Sh.Rashidov Q.F.Y	1626
9	Qo'qumboy Q.F.Y	2416

Jadval: Namangan viloyati suvxo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Tabiiy resurslarini tuman xo'jaligining rivojlantirishdagi rolini aloxida ta'kidlash lozim, iqlim resurslari, suv, tuproq va o'simlik resurslariga boy. Kosonsoy tumanida qishloq xo'jaligini islox qilishni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari mamlakat xayoti va iqtisodiyotida agrar soxaning tutgan o'rni, mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, isloxotni bosqichma-bosqich amalga oshirib borish va rivojlantirishning muxim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqmoqda.(1-karta-sxema)

Kosonsoy tumanida yangicha xo'jalik yuritish mexanizimining, qishloq xo'jaligini moliyalashtirish, kreditlash va sug'urta qilishning yangi tizimini, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan maxsulot va qishloqqa keltiriladigan texnika, yoqilg'i va mineral o'g'itlar uchun bo'ladigan o'zaro xisob-kitobning asoslari

1-karta-sxema

Podshoota-Chodak irigatsiya tizimi boshqarmasining kartasi



Shartli belgilar:



1. K, S, O 850 ga
2. Kosonsoy soyi
3. Qalmoq k
4. Chust kanali
5. Sharq duldaz kanali
6. Sumsorsoy
7. Dam kanali

ishlab chiqildi va tadbiq etildi. Tumanda qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy mustaqilligi kengaydi.

Kosonsoy tumanida xam qishloq xo'jaligida paxta yakkaxokimligiga barxam berilib, (paxta va donga davlat buyurtmasi qisman saqlanib qolgan xolda), davlatning buyurtmalari bekor qilinib, agrar soxadagi idora va tashkilotlarning direktiv xususiyatlari xamda markazlashgan ma'muriyatchiliklarga chek qo'yildi. Boshqaruv organlarining ichki tuzilishi va mohiyati rasmiy ravishda tubdan o'zgartirildi. Kosonsoy tumanida qishloq va suv xo'jaligi vazirligining asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari sifatida quyidagilar ko'rsatilgan:

- Qishloq xo'jaligida, jumladan fermer xo'jaliklarida dexqonchilik, suvdan foydalanish va agrotexnologiyalarning ilg'or tizimlarini chuqur o'rganishga va joriy etishga asoslangan yagona texnika siyosatini amalga oshirish;
- Qishloq xo'jaligida iqtisodiy isloxotlarni chuqurlashtirish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirish va ular amalga oshirilishining, qishloqda mulkchilik va xo'jalik yuritish turli shakllarini rivojlantirishning, fermer xo'jaliklari munosabatlarining monitoringini olib borish;
- Dexqonchilik va chorvachilik uchun dexqonchilikning yangi tizimlari, yuqori samarali agrotexnologiyalar, qishloq xo'jaligi texnikasining zamonaviy turlari joriy etilishini ta'minlash;
- Qishloq xo'jaligi uchun mutaxassislarni o'qitish, tayyorlash va qayta tayyorlashni tashkil eitsh.

Ko'rinib turibdiki, agrar soxada ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish va turli mulkchilikka asoslangan qishloq xo'jaligi korxonalarini ilg'or tajriba, ilmiy – texnologik yangiliklar xamda chet el investitsiyalarini jalb etish orqali rivojlantirish va unga sharoit yaratishga qaratilgan.


Kosonsoy tumanida isloxotlar qishloq xo'jaligida servis xizmatlarini ko'rsatishning yangi shakllari vujudga kelib, rivojlanmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining «Mashina – traktor parklarining moddiy – texnika bazasini mustaxkamlash va ular faoliyatining samaradorligini oshirish

chora - tadbirlari to'g'risida» gi xamda «Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishning texnik jixatdan ta'minlanganligi darajasini oshirishga oid chora – tadbirlar to'g'risida» gi qarorlari qishloq xo'jaligi texnika parkini eskirayotgan bir vaqtda katta amaliy ahamiyat kasb etadi, yaxshi natijalar bermoqda.

2.2. Kosonsoy daryo xavzasida suv resurslari miqdorini baxolash

Namangan viloyati qishloq xo'jaligini rivojlantirishda maxalliy daryo suvlarning o'rni katta. Mahalliy soylaridan biri Kosonsoy-Chotqol tog' tizmasidan Chilquduqsoy nomi bilan boshlanib, sharq va janubi-sharqqa tomon oqadi. Uning uzunligi 154 km., havzasining maydoni 1650 km², o'rtacha balandligi 2347 metrni tashkil etadi. Kosonsoy daryosining yuqori oqimi Qirg'iziston Respublikasi hududidagi qor, muzlik va yomg'ir suvlaridan to'yinadi. Daryo Kosonsoy tumaning 30-kilometrlik masofada shimoldan janubga qarab kesib o'tadi. O'rtacha yillik suv sarfi 9,81 m³/sek, o'rtacha oqim moduli 5,94 l/sek km². Suvning 58 foizi mart-sentyabrda, 42 foizi esa oktyabr'-fevral' oylarida oqib o'tadi. Kosonsoy daryosidan qishloq xo'jaligi sug'orma dexqonchiligida xar yili o'rtacha 135,1 mln. m³ suvdan foydalaniladi. Mavjud suvlarning 42,0 mln.m³i nosug'orish davriga, 93,1 mln.m³ esa sug'orish davriga to'g'ri keladi. Kosonsoy daryosi va uning ichki manbalarda loykalanish kam, sho'rlanish esa 0-1,0 g/l. Barcha daryo suvlaridan foydalanish rejasi xar yili suv xo'jaligi birlashmalari tomonidan tuziladi. Tumantsug'orish tarmoqlari taxlil qiliganda, daryodan 5 ta yirik kanal ajratilgan bo'lib, tuman qishloq xo'jalik yerlariga suv yetkazib beradi.

Chotqol tog'laridan boshlanuvchi Kosonsoy soyi tumanning asosiy sug'orish manbai hisoblanadi. Ayniqsa soy suvidan paxtachilikda, adirlarni o'zlashtirish va sug'orishda keng foydalanib kelinmoqda. Kosonsoy Farg'ona vodiysining qadimgi axoli yashaydigan joylaridan biri bo'lib, Namangan viloyatining shimoliy qismida joylashgan. Kosonsoy daryosi qadimda shimoldan janubga qarab o'z suvini Sirdaryoga quygan (1-chizma).



Chizma: Podshoota-Chodak irrigatsiya tizimi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Kosonsoy daryosi viloyatning 26800 gektar maydonlarini sug'oradi. Shundan Chust tumanida 6230 gektar, Kosonsoy tumanida 18600 gektarni To'raqo'rg'on tumanida 1170 gektarni tashkil qiladi. Daryo Kosonsoy tumani qishloq xo'jaligini asosini tashkil qiladi. Daryo xisobidan sug'orilayotgan 18600 gektarning 3496 gektari paxta, 5186 gektari g'alla, 2284 gektarini bog' va uzumzorlar, 407 gektari sabzavot va poliz, 7227 gektari axoli tomorqa maydonlarga to'g'ri keladi. Chust tumanidagi jami 6230 gektar unumdor yerlarning 976 gektari paxta, 1178 gektari g'alla, 2054 gektari bog' va uzumzorlar, 321 gektari zabzavot va poliz ekinlari, 808 gektariga axoli tomorqalari va va boshqa maqsadlarda 893 gektar maydonlar sug'oriladi. To'raqo'rg'on tumanida esa jami 1170 gektar yerlarning 600 gektar bog'- tokzorlarga, 570 gektar tomorqa xo'jaliklarini suv bilan ta'minlaydi (3-jadval).

Kosonsoy daryosidagi suv taqchilligini bartaraf etish va sodir bo'ladigan suv toshqinlari oldini olish maqsadida O'rtato'qay botig'ida Shimoliy Farg'onadagi eng yirik bo'lgan Kosonsoy suv ombori (1941-1967 y.y.) barpo etilgan. Bugungi kundagi suv sig'imi 160 mln.m³ dan iborat bo'lgan suv omboridan yilning hohlagan mavsumida oylar, haftalar va sutkalar davomida kerak bo'lgan joylarga

3- jadval

Kosonsoy suv omboridan 2004-2016 yillarda chiqarilgan suv sarfi

№	Respublikalar nomi	yillar	yanvar'	fevral'	mart	aprel'	May	iyun'	iyul'	avgust	sentyabr'	oktyabr'	noyabr'	dekabr'	Jami olingan suv mln m ³	Foiz ulishi %
			m ³ /sek ³	m ³ /sek ³	m ³ /sek ³	m ³ /sek	m ³ /sek	m ³ /sek	m ³ /sek	m ³ /sek	m ³ /sek	m ³ /sek	m ³ /sek	m ³ /sek		
1	Umumiy chiqarilgan suv	2004	0,60	0,60	1,65	5,12	7,39	5,53	5,00	7,56	6,04	7,39	1,86	0,60	117,1	
	O'zbekiston		0,60	0,50	1,42	4,46	6,40	4,71	4,00	6,59	5,15	6,42	1,63	0,60	101,7	87
	Qirg'iziston			0,10	0,23	0,66	0,99	0,82	1,00	0,98	0,89	0,97	0,23		15,5	13
2	Umumiy chiqarilgan suv	2005	0,70	0,70	2,59	4,46	4,35	7,93	7,50	10,02	4,74	3,58	3,43	0,60	113,7	
	O'zbekiston		0,70	0,70	2,22	3,84	3,73	6,72	6,00	8,77	4,01	3,09	3,00	0,60	98,6	87
	Qirg'iziston				0,37	0,62	0,62	1,21	1,50	1,24	0,73	0,49	0,43		15,1	13
3	Umumiy chiqarilgan suv	2006	0,60	0,60	0,53	5,44	8,26	8,13	6,50	5,77	0,26	1,47	1,03	0,60	86,3	
	O'zbekiston		0,60	0,60	0,47	4,77	7,26	7,13	5,50	5,06	0,23	1,29	0,91	0,60	76,3	88
	Qirg'iziston				0,06	0,68	1,00	1,00	1,00	0,71	0,03	0,18	0,13		10,0	12
4	Umumiy chiqarilgan suv	2007	0,60	0,70	1,70	6,00	12,73	14,57	8,80	11,28	6,84	7,58	7,38	0,60	184,5	
	O'zbekiston		0,60	0,70	1,46	5,16	10,86	12,37	8,12	9,78	5,81	6,58	6,48	0,60	159,2	86
	Qirg'iziston				0,24	0,83	1,87	2,20	0,68	1,50	1,03	1,00	0,90		25,2	14
5	Umumiy chiqarilgan suv	2008	0,70	0,60	4,54	8,43	15,87	13,84	5,50	4,50	2,21	2,49	1,27	0,70	145,5	
	O'zbekiston		0,70	0,60	3,90	7,30	13,87	12,21	4,00	3,96	1,92	2,19	1,12	0,70	127,8	88
	Qirg'iziston				0,65	1,13	2,00	1,63	1,50	0,54	0,30	0,31	0,15		17,7	12
6	Umumiy chiqarilgan suv	2009	0,60	0,60	2,41	8,08	4,14	11,84	8,00	10,16	6,38	7,63	6,56	0,60	155,3	
	O'zbekiston		0,60	0,60	2,06	7,01	3,53	10,04	7,59	8,91	5,43	6,63	5,76	0,60	134,7	87
	Qirg'iziston				0,35	1,08	0,61	1,80	0,41	1,25	0,95	1,00	0,80		20,6	13
7	Umumiy	2010	0,70	0,70	2,00	6,81	7,19	13,89	9,80	14,96	6,62	7,54	6,75	0,60	178,6	

	chiqarilgan suv															
	O'zbekiston		0,70	0,69	1,72	5,88	6,19	11,89	8,00	13,06	5,62	6,59	5,90	0,60	155,1	87
	Qirg'iziston			0,01	0,28	0,93	1,00	2,00	1,80	1,90	1,00	0,95	0,85		23,5	13
8	Umumiy chiqarilgan suv	2011	0,70	0,60	4,20	11,20	7,81	11,22	1,50	4,51	3,20	4,32	3,80	0,60	137,0	
	O'zbekiston		0,70	0,60	4,20	9,80	6,81	9,75	0,00	3,97	3,20	3,69	3,80	0,60	123,8	90
	Qirg'iziston					1,40	1,00	1,47	1,50	0,54		0,63			13,3	10
9	Umumiy chiqarilgan suv	2012	0,60	0,70	1,29	6,62	5,23	6,80	1,00	12,20	10,64	7,19	9,04	0,70	160,4	
	O'zbekiston		0,60	0,70	1,11	5,72	4,43	5,80	0,00	10,70	9,14	6,19	7,97	0,70	139,5	87
	Qirg'iziston				0,18	0,90	0,80	1,00	1,00	1,50	1,50	1,00	1,07		20,9	13
10	Umumiy chiqarilgan suv	2013	0,70	0,70	1,20	7,00	5,00	6,17	8,30	9,52	2,85	1,83	0,73	0,60	95,8	
	O'zbekiston		0,70	0,70	1,20	6,77	5,00	5,87	7,05	8,06	2,46	1,61	0,65	0,60	88,7	91
	Qirg'iziston					0,23	0,00	0,30	1,26	1,45	0,60	0,32	0,20		8,2	9
11	Umumiy chiqarilgan suv	2014	0,70	0,60	0,70	4,43	5,30	6,93	10,44	12,85	7,73	9,87	5,13	0,60	144,9	
	O'zbekiston		0,70	0,60	0,49	3,23	4,10	5,43	8,94	10,85	5,73	8,37	3,66	0,60	115,7	80
	Qirg'iziston				0,21	1,20	1,20	1,50	1,50	2,00	2,00	1,50	1,47		29,2	20
12	Umumiy chiqarilgan suv	2015	0,60	0,60	0,60	3,97	5,00	6,83	10,00	9,68	3,80	5,97	1,04	0,60	102,4	
	O'zbekiston		0,60	0,60	0,60	3,67	4,40	5,48	7,70	7,71	3,60	5,27	1,04	0,60	88,8	87
	Qirg'iziston					0,30	0,60	1,35	2,30	1,97	0,20	0,70			13,6	13
13	Umumiy chiqarilgan suv	2016	0,60	1,37	0,62	0,97	3,10	6,33	10,17	9,93	3,77	6,35	2,97	0,50	123,6	
	O'zbekiston		0,60	1,22	0,62	0,67	2,16	4,53	8,17	8,69	3,31	5,59	2,61	0,50	102,4	83
	Qirg'iziston			0,15		0,3	0,94	1,80	2,00	1,24	0,45	0,76	0,36		21,2	17

Jadval: Namangan viloyati suvxo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

suvni yetkazib berish imkoniyati yaratildi. Suv ombori xisobidan jami 32000 gektar yerlar sug'orma dextqonchilikda foydalaniladi. Bundan Namangan viloyatida 26800 gektar, Qirg'iziston Respublikasida 5200 gektarni tashkil qiladi. Suv omboridan foydalanayotgan suv miqdorini taxlil qilinganda 2007-2010 yillarda eng ko'p miqdorda suvdan foydalanilganligi aniqlandi. 2007 yilda suv omboridan 184.5 mln.m³ foydalanilgan bo'lsa, shuning 127.8 mln.m³ O'zbekiston Respublikasi 17.7 mln.m³ni Qirg'iziston Respublikasida foydalanilgan. 2010 yilda daryodan 178.1 mln.m³ foydalanilgan bo'lsa, buning 155.1 mln.m³ O'zbekistonga, 23.5 mln.m³ni Qirg'iziston Respublikasiga to'g'ri keladi.

Kosonsoy suv ombori -1941 – 1967 yillarda qurilgan. Egallagan maydoni 850 gektar, to'g'on balandligi - 64 metr, uzunligi - 290 metr to'g'on tepasi eni - 9 metrni tashkil qiladi.

Suv omborini 1941 - yili qurilish ishlari boshlangan va shu yili 30 mln m³ suv yig'ilgan. 1942 yili urush yillaridagi yetishmovchiliklar va qiyinchiliklar xisobiga qurilish ishlari to'xtatilgan. 1947- yildan boshlab, qurilish ishlari yana qayta boshlangan. 1954-yil 100 mln m³ suv yig'ish imkoniyatiga ega bo'lgan. 1967-yili suv omborida qurilish yakunlanib, 165 mln m³ suv sig'imiga ega bo'lgan inshoot vujudga kelgan. Xozirda suv ombori shaharchasida - 35 ta xonadonda 165 nafar aholi yashaydi. Bundan tashqari suv ombor shaharchasida 1 ta maktab, 1 ta bolalar bog'chasi, 1 ta qishloq vrachlik punkiti bor. Suv ombor hududida 5 ta militsiya punktlari joylashgan bo'lib, har bir smenada 20 nafar militsiya xodimi ishlaydi. Suv omboridagi maktab Kosonsoy shahridagi № 1-maktabga filial hisoblanadi. Bunda o'quvchilar soni 18 nafar. Suv omborida 37 nafar ishchi xodimlar mavjud bo'lib, bulardan 16 nafari o'zbeklar, 11 nafar qirg'izlar, 10 nafar tojiklardan iborat (4-jadval).

Bugungi kunda suv omborida quyidagi muammolar saqlanib turibdi. Suv ombori xududlari Qirg'iziston Respublikasiga berish va ikki davlat teng foydalanish masalasi ko'tarilgan bo'lsada, xaligacha bu xal etilmadi. Suv omborida ta'mirlash ishlarini boshlash va qurilish anjomlari bilan xar ikki davlat tomonidan ta'minlashni boshlash lozim.

4- jadval

Kosonsoy suv omboridan 2015-2016 yillarda nosug'orish xamda sug'orish mavsumiga yetkazib berilgan suv miqdori

№	Xududlar nomi	Sug'oriladigan yer maydoni. gek.	2015-2016 yillar nosugorish mavsumida olingan suv miqdori mln.m ³	2016 yillar sugorish mavsumida olingan suv miqdori mln.m ³	Jami olingan suv miqdori mln.m ³	Sugorish mumkin bulgan maydon gek.	Yillik ta'lab etiladigan suv miqdori mln.m ³
1	Chindovul-Ilonkir	6267	6,6	20,9	27,5	1547	6,8
2	Teshik-tosh sharsharasi	2134	2,2	7,1	9,4		
3	Do'stlik	6274	6,6	20,9	27,5	2346	10,3
4	Tuya toydi sharsharasi	1671	1,8	5,6	7,3	1671	7,3
	Qo'qumboy xazinasi	2254	2,4	7,5	9,9	2254	9,9
	Jami tuman	18600	19,6	61,9	81,5	7818	34,3
5	Chust tuman Baymoq Xududi	6230	4,7	23,9	28,6	4257	19,6
6	Turaqo'rgon tuman G'ayrat xududi	1170	4,5	2,1	6,7	1170,0	6,7

Jadval: Namangan viloyati suvxo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Bundan tashqari, suv omborini yuqori va pastgi buferlarini mexanizm yordamida tozalash ishlarini olib borish uchun mexanizmlarni imkoniyati yo'qligini misol qilish mumkin. Suv omboridan 2015-2016 yillarda jami 116.7 mln m³ suvdan foydalanilgan bo'lsa, bundan sug'orishga 87.9 mln.m³,nosug'orish davrida 28.8 mln m³ foydalanildi. Kosonsoy tumanida Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasi tubdan o'zgardi. Kosonsoy tumanida 640 ta fermer xo'jaligi faoliyat ko'rsatmoqda, shu bilan birga asosiy e'tibor fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirishga qaratilmoqda. Suv xo'jaligini boshqarishda bozor mexanizmi va printsiplarini joriy etish, irrigatsiya inshootlaridan samarali foydalanish va ularning ishonchli ishlashini hamda sarflangan suvning hisob-kitobini olib borish maqsadida irrigatsiya tizimlarining ma'muriy-hududiy printsiptan havza printsiptiga o'tildi.

Oldingi boshqaruv tizimida suv resurslari iste'molchilarga markazdan ma'muriy tarzda, ularning ehtiyojlarini e'tiborga olmasdan taqsimlangan bo'lsa, bugungi kunda havza printsiptida buyurtmalar asosida o'zaro tuzilgan shartnomalarga muvofiq suv iste'molchilarga tegishli kanallardan suv taqsimlagichlar orqali yetkazib beriladigan bo'ldi.

Kosonsoy daryosidan iste'mol qilinadigan o'nlab va hatto yuzlab kilometr joyga kanallar, sug'orish tarmoqlari, gidrotexnik qurilmalar yordamida suv yetkazib beriladi. Bularga quyidagilar kiradi:


- 1) Chorgumbaz kanali - asosan Sh.Rashidov Q.F.Y fermer xo'jaliklari va axoli tomorqalarini sug'orishda foydalaniladi.
- 2) Teshiktosh kanali- asosan shahar axolisini ichimlik suvi bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga Yangi -Hayot, Go'rmiron, Kosonsoy shahar axoli tomorqalari suv yetkazib beradi.
- 3) Qalmoq - Hushvon ariqlari Sharof Rashidov Q.F.Yni suv bilan ta'minlaydi.
- 4) Chust kanali- Dexqonobod, Tergachi, Rovot Q.F.Y fermer xo'jaliklarini va qo'shni Chust tumani Baymoq Q.F.Y fermer xo'jaliklarini yerlarini sug'orishda foydalaniladi.

5) Qo'qumboy kanali- Kosonsoy hamda Namuna Q.F.Y fermer xo'jaliklariga suv yetkazib beradi.

Tumanda Kosonsoy suvidan qishloq xo'jaligida ayniqsa paxtachilikda samarali foydalanish uchun tuman sharqiy qismida joylashgan adirlarni sug'orish uchun katta "Qo'qumboy" kanali qurilgan va u 1973 – yil qayta rekonstruksiya qilingan.

Chust tumanining shimoliy paxtachilik qismlarini sug'orish uchun katta Chust kanali qazilgan bo'lib, hozirgi paytda sug'orish uchun ikki tuman keng foydalanishmoqda. Bundan tashqari qishloq xo'jaligida foydalanish uchun Kosonsoydan katta - katta ariqlar va kanallar qazib o'tkazilganki, ularni soni yildan - yilga ortib bormoqda, masalan: Xushvon, Jo'yi dam, Qarmoq ariqlari bunga misol bo'lad. Tumanda katta soylardan tashqari kichik soylar ham bor. Lekin ularni suvi qishloq xo'jaligida foydalanish maqsadida yo'lda ushlanib qolishi sababli bu soylardan hozirgi vaqtda suv oqmaydi. Suv oqsa ham faqat yog'ingarchilik ko'p bo'lgan aprel – may oylarida oqadi. Shunday soylardan "Xitoy – soy" va "Shokaftar- soy" larini misol qilib olish mumkin (2-chizma).

2-chizma



Chizma: Podshoota-Chodak irrigasiya tizimi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Tumanda Kosonsoy suv omboriga bog'langan Buloqboshi nasos stantsiyasining ahamiyati katta. Nasos stantsiyasi ekin maydonlarini suv tanqisligi

yillarida Norin daryosi suvlari orqali qo'shimcha sug'orish imkoniyatiga ega bo'lish maqsadida 2012 yili Osiyo Taraqqiyot banki hamkorligida 1974 - yilda ishga tushirilgan va 5461 gektar maydonni sug'orishga mo'ljallangan Buloqboshi nasos stantsiyasini qayta ta'mirlashlandi. Loyiha smeta hujjatlariga asosan nasos stantsiyasiga suv keltiruvchi G'irvon-1 kanali, To'raqo'rg'on mashkanali, M-1 va M-2 kanallari ta'mirlanib, nasos stantsiyasidagi 10 dona 22-NDS agregatlari o'rniga Yaponiya davlatida ishlab chiqilgan 8-dona zamonaviy nasos agregatlarini o'rnatildi. Loyihaning umumiy qiymati 12.6 mln AQSH dollariga teng bo'ldi. Qurilish ishlarini «Kubota Orteks» Yaponiya-Angliya Qo'shma korxonasi boshchiligida «Vika» mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan olib borildi va loyiha amalga oshirilgandan so'ng 6641 gektar maydonda suv ta'minoti yaxshilanadi. Shundan:

- «Ququmboy xazinasi» SIU-sida 2800 gek;
- «Alisher-Valisher» SIU-sida 2400 gek;
- «Tergachi Oyimbuloq» SIU-sida 480 gek;
- «Qoratog' bulog'i» SIU-sida 200 gek;
- PPR va boshqa hududlarda 801 gek. Unumdor yerlarda suv ta'minoti yaxshilandi.

Kelajakda loyihaning ikkinchi bosqichi amalga oshirilishi bilan Buloqboshi nasos stantsiyasidan Teshiktosh kanaliga qo'shimcha 4 m³ suv tashlash ko'zda tutilgan va ushbu ngasos stantsiyasi orqali sug'oriladigan maydon 10 ming gektarga yetkaziladi va tumanning Kosonsoy suv omboridan suv bilan ta'minlanadigan «Do'stlik» hududidan 500 gek, «Dehqonobod-ilonqir» hududidan 1060 gek, «Isparon» hududidan 1800 gek. suv ta'minoti og'ir hududlarda suv ta'minoti yaxshilanishiga erishiladi.

Kosonsoyda soydan tashqari yer osti suvlaridan ham keng foydalanilmoqda. Tumanda hozirgi kunda ko'pgina yer osti qatlami suvlari borligi aniqlangan va ulardan qishloq xo'jalik ekinlarini sug'orish va axolini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida keng foydalaniladi. Hozirgi kunda tumanimizda 220 ta artezan quduqlari Sh. Rashidov, Kommuna, Dexqonobod, Tergachi, Yangi hayot, Navoyi, Isparon, Sharq yulduzi MFY hududlarida joylashgan.

Tumanning Tergachi Q.F.Yni hududida yer osti suvlari juda yuza joylashgandir. Ko'plab oilalar quduq suvlaridan foydalanadilar. Tuman hududida buloqlar ham ko'plab uchraydi. Kosonsoy sanatoriyasi atrofidagi buloqlar o'zini shifobaxshligi bilan ko'pchilikni iqqatini jalb etadi. Bundan tashqari Panixonda, Oqtepa qishlog'ida "Kelinchak" mozor nomli chakka buloqlari kishi diqqatini o'ziga jalb etadi.

Kosonsoy daryosi tumani iqtisodiyotini va ishlab chiqarishni rivojlantirishda hududlararo ahamiyat kasb etuvchi asosiy tabiat mahsuli bo'lib, asosan shahar va qishloq axolisini toza ichimlik suvi bilan xam ta'minlaydi. Tuman nixoyat sertarmoq tuman xisoblanib, qishloq xo'jalik ekinlari paxtachilik, bog'dorchilik va polizchilik, sabzavotchilikni rivojlantirishda muxim ahamiyat kasb etadi. Kosonsoy daryosi suv resurslaridan samarali foydalanish bugungi kunning dolizarb muommolaridan biriga aylanmoqda. Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini ta'minlashda asosiy e'tibor suv inshootlaridan unumli foydalanish va birlamchi suvdan foydalanuvchilarning suvni iste'molchiga yetkazib berishdagi faoliyatini yaxshilashga qaratish lozim. Bugungi kunda suv taqchilligi ortib borayotgan shu mintaqada yer maydoni gektaridan emas, balki 1m^3 suv xisobiga eng ko'p maxsulot olish vazifasi qo'yilishi maqsadga muvofiq. Xaqiqatdan xam maskur mintaqada keyingi yillar davomida suv tanqisligi keskin ko'tarildi. Bu esa, qishloq xo'jaligining rivojini keskin darajada pasayishiga olib kelmoqda. Bu muommolarni bartaraf etish maqsadida 2017-2018 yillarda tumandagi Yertikan suv omborini qayta qurish va suv sig'imini 60 mln. m^3 dan oshirish rejasi ishlab chiqilmoqda.

Keyingi yillarda mintaqada xo'jaliklar ichki sug'orish tizimlarining foydalanish ko'rsatkichlari pastligicha qolmoqda. Ya'ni, daryo suvlarini iste'molchilarga yetib borguncha suvning bug'lanish va yerga singishi, suv resurslarining katta masofalardan oqib borishi va suv iste'molchilar tomonidan isrofgarchilikka yo'l qo'yilishi davom etmoqda. Bundan tashqari aksariyat sug'orish inshootlarining eskirganligi va yillar davomida ta'mirlanmaganligi muommoni yanada keskilashishiga olib kelmoqda. Podshoota-Chodak irrigatsiya tizimiga kiruvchi Kosonsoy daryosida o'ndan ortiq suv istemolchilar uyushmasi

tashkil etilgan bo'lib, bundan Kosonsoy tumanida 6 ta, Chust tumanidagi 16 ta uyushmadan 3 tasi, To'raqo'rg'on tumanida tashkil etilgan 12 ta uyushmadan 2 tasi daryo suvlaridan samarali foydalanish uchun xizmat qiladi.

2.3. Kosonsoy daryo suvlaridan samarali foydalanish masalalari

Kosonsoy daryo suvlaridan samarali foydalanishning eng maqbul yo'nalishlaridan biri Suv Istemolchilar Uyushmasi (SIU) faoliyatini shakillantirish maqsadga muvofiq. Bunga asosan uyushma tomonidan qat'iy chora tadbirlar:

- Suv iste'molchilari uchun suv resurslariga bo'lgan talab va hududiy sharoitlarni e'tiborga olish;

- Tumanlar doirasida ekiladigan qishloq xo'jalik ekinlari turidan qat'iy nazar berilayotgan suv rejalarini belgilash va shunga asosan olingan suv resurslarini xisob –kitob qilib borish;

- Suvni tejab-tergab ishlatgan iste'molchilarni rag'batlantirish Suvdan xo'jasizlarcha foydalanishi tufayli bir gektarga 1000 m³ suvdan ortiqcha foydalanganligi uchun jarima belgilash lozim. Albatta bu ko'rsatkichlarni kelgusida suv tanqisligini inobatga olgan holda ko'paytirish yoki kamaytirish kun talabidan kelib chiqqan holda belgilash zarurdir (5-jadval).

Kosonsoy daryosida suvdan foydalanish rejasi suv iste'molchilarining suvga bo'lgan talab me'yorini, uni belgilangan davrda tejamli foydalanish yo'llarini ishlab chiqish mintaqada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni, ko'paytirish va sifatini yaxshilashga zamin yaratadi.

Keyingi vaqtlarda Kosonsoy tumanining sug'orish mavsumida qishloq xo'jaligi ekinlariga suv yetkazib berishda bir muncha qiyinchiliklar vujudga kelmoqda. Jami viloyatda 26800 gektar daryo suvlari bilan sug'oriladigan bo'lsa, shundan 4276 gektari paxta, 6173 gektari g'alla maydonlariga to'g'ri keladi. Mavjud bog' va tokzorlar 5230 gektarni axoli tomorqalari va boshqa ekin maydonlari 10321 gektarni tashkil qiladi. Demak bundan ma'lum bo'ladiki, sug'oriladigan yerlarning asosiy qismi bog', uzumzorlar va axoli tomorqalari

5-jadval

Kosonsoy suv omboridan sug'oriladigan qishloq xo'jalik ekinlarini joylashuvi

№	SIU-lar nomi	Jami sug'oriladigan maydoni, gek.	Shu jumladan				Boshka manbaalardan qo'shimcha suv olish xisobiga sug'orish mumkin bo'lgan maydon gek.	Shu jumladan		Ekin turlari buyicha gek.				Suv ta'minoti bulmaydigan maydon gek.
			Paxta	G'all a	Bog'- tokzorlar	Tomorqa va boshqalar		KNK	maxalliy buloqlar	Paxta	G'all a	Bog'- tokzorlar	Tomorqa va boshqalar	
1	Chindovul-Ilonqir	6267	1038	1391	1242	2596	1547		1547	318	160	190	879	4720
2	Teshik-tosh sharsharasi	2134	286	496	385	967								2134
3	Do'stlik	6274	1512	1968	630	2164	2346	2346		551	311	422	1062	3928
4	Tuya toydi sharsharasi	1671	364	566	12	729	1671		1671	364	566	12	729	
5	Qo'qumboy xazinasi	2254	296	765	15	1178	2254	2254		296	765	12	1181	
	Jami tuman	18600	3496	5186	2284	7634	7818	4600	3218	1529	1802	636	3851	10782
6	Chust tuman Baymoq xududi	6230	780	987	2346	2117	4257	4257		352	754	795	2356	1973
7	To'raqo'rg'on tuman G'ayrat xududi	1170			600	570	1170		1170	193	362	126	2462	

Jadval: Namangan viloyati suvxo'jaligi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

xisoblanadi. Sug'orish mavsumida suv taqchilligini keltirib chiqaradigan xam tomorqa vakillari xisoblanadi.

Kosonsoy daryosi suvlarini asosan Kosonsoy tumanida foydalanishini tazarda tutilsa, tuman qishloq xo'jaligini isloh qilishni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari mamlakat hayoti va iqtisodiyotida agrar sohaning tutgan o'rni, mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, islohotni bosqichma-bosqich amalga oshirib borish va rivojlantirishning muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqmoqda.

Qishloqda yangicha xo'jalik yuritish mexanizimining, qishloq xo'jaligini moliyalashtirish, kreditlash va sug'urta qilishning yangi tizimini, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarilgan mahsulot va qishloqqa keltiriladigan texnika, yoqilg'i va mineral o'g'itlar uchun bo'ladigan o'zaro xisob-kitobning asoslari ishlab chiqildi va tadbiq etildi. Qishloq xo'jalik korxonalarining iqtisodiy mustaqilligi kengaydi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2016 yilda jami qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulotlar xajmining asosiy qismi nodavlat sektori hissasiga to'g'ri keldi. Iqtisodiyotning agrar sektorida mustahkam va barqaror rivojlanish ta'minlandi.

Mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish strukturasi tubdan o'zgardi. Qishloq xo'jaligida ekinlarni joylashtirishda ilmiy asoslangan usullar joriy etildi. 2016 yil yakuni bilan qishloq xo'jaligida 172,5 mlrd, so'mlik yalpi mahsulot ishlab chiqarildi yoki yalpi mahsulot ishlab chiqarish 2015 yilga nisbatan 103,8 foizga yoki viloyat ko'rsatkichining 4,8 foizi tashkil etmoqda.

Barcha turdagi xo'jaliklarda 44,8 ming tonna don (o'tgan yilga nisbatan 101,7 %), 8,2 ming tonna kartoshka (109,3 %), 34,9 ming tonna sabzavot (109,3 %), 1,9 ming tonna poliz (103,9 %), 11,8 ming tonna meva (107,6 %) va 5,3 ming tonna uzum (104,4 %), chorvachilik mahsulotlaridan 6,1 ming tonna go'sht (105,1 %), 45,5 ming tonna sut (105,7 %), 60,3 mln, dona tuxum (117,7 %), 90 tonna jun (107,1 %) 71,9 tonna olingan asal (102,7%) va 66 tonna baliq (129,4%) ishlab chiqarildi.

Xisobot davrida qoramol bosh sonlari 53,0 ming boshni (106,2%), shu jumladan sigirlar 17,4 ming boshni (101,7%), qo'y-echkilar 53,4 ming boshni (102,0%), parranda 1024,2 ming boshni (125,2%) va otlar 312 boshni (102,0 %) tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi «Oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1047-sonli qarorini viloyatda bajarilishini ta'minlash bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish dasturiga ko'ra, tuman aholisini arzon va sifatli qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilash maqsadida 2016 yilda 8175 tonna kartoshka, 34925 tonna sabzavot, 1862 tonna poliz, 11777 tonna meva, 5270 tonna uzum yetishtirishga erishildi.

Aholini sifatli go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlashga ham alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, barcha turdagi xo'jaliklarda 6112 tonna go'sht, 45525 tonna sut, 60333 ming, dona tuxum 71,9 tonna asal va 66 tonna balik mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Tumanda suv resurslari sug'orishning hozirgi holatida to'la o'zlashtirilgan. Shuning uchun yer resurslari yetarli bo'lishiga qaramasdan sug'oriladigan maydonlarni kengaytirishga imkoniyat deyarli yo'q. Bunday holat yuzaga kelganda, suv ta'minoti yetarli bo'lmagan va paxtadan olinadigan hosil kam yerlarda paxta maydonlari o'rnida bog' va uzumzorlar tashkil qilish zarur. Ularni sug'orish ko'p suv talab qilmaydi, paxtaning suvga bo'lgan talabidan 3-4 marta kam. Bog' va uzumzorlarning mahsuloti paxtaniki kabi qayta-qayta ishlanadi; uzum esa texnik ekinlar qatoriga kiradi. Ularning mahsulotiga talab esa katta. Tumanda daryo suvlaridandan samarali foydalanish suvni isrofgarchiligiga yo'l qo'ymaslik maqsadida 2017 yilda 180 gektar fermer xo'jaliklari paxta maydonlariga ko'chma egiluvchan quvurlar orqali suv berish rejasi ishlab chiqildi va foydalanildi. Aynan tumandagi Qo'qumboy xazinasi suv istemolchilar uyushmasi xududlarida bunday usullardan keng foydalanishning asosiy sababi

shundaki, birinchidan bu xudud Kosonsoy daryo suvlari ta'minotining oxirida joylashganligi bo'lsa, ikkinchidan paxta maydonlari va sug'oriladigan maydonlar ichida katta maydonlarni egallashi sababli va suv resurslarga eng taqchil bo'lgan xudud xisoblanadi. Mutaxassislarning fikriga kora istiqbolda tumanning Qoqunboy va Alisher-Valisher suv istemolchilar uyushmasi xududlaridagina paxta maydonlari saqlab qolinadi xolos qolgan xududlar don, bog'dorchilik, meva-sabzavot, polizga ixtisoslashgan xo'jaliklarga aylantirish rejasi ishlab chiqilmoqda (6-jadval).

6-jadval

Kosonsoy tumanida qishloq xo'jaligi ekinlarini ko'chma egiluvchan quvurlar orqali sug'orish

	Hudud nomi	Fermar xo'jaliklari nomi	Ko'chma egiluvchan quvur	
			maydoni, gek	ekin turi
1	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Muxtor fayz mirzo"	16	Paxta
2	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Axrorbek Saidjon gulshani"	12	Paxta
3	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Nasiba Dilshoda"	16	Paxta
4	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Sebcha bulok durdonasi"	16	Paxta
	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Qo'qumboy oltin tolasi"	12	Paxta
	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Musoarik azamatlari"	16	Paxta
	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Saxiy tabiat"	12	Paxta
	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Kuxna kushon diyori"	12	Paxta
	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Tergachi kush xosili"	12	Paxta
0	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Tursunboy Mamadaliev"	16	Paxta
1	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Xamkor jilosi"	12	Paxta
2	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Toshtappa zamini"	12	Paxta
3	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Ertikan chamanzori"	8	Paxta
4	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Ikromjon ok tolasi"	8	Paxta
JAMI			180	

Jadval: Podshoota – Chodak irrigatsiya tizimi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan

Aslida, g'o'zaning suv iste'moli oddiy egat orqali har bir egatdan sug'orilganda gektariga 6470 m^3 , plyonka va somon bilan mulchlab sug'orilgan variantlarda $5337\text{-}5260 \text{ m}^3$ ni tashkil etgan bo'lsa, egat oralatib sug'orilganda $4325; 3707\text{-}3774 \text{ m}^3$ dan iborat bo'lgan. Shuningdek, 1 tsentner paxta hosili uchun sarflangan suv har bir egatdan sug'orilgan variantlarga nisbatan egat oralatib sug'orilgan variantlarda o'rtacha $33,6\text{-}56 \text{ m}^3$ tejaladi. Kosonsoy tumanida sug'orish suvlari taqchilligi sharoitida g'o'zani egat oralatib sug'orish texnologiyasining iqtisodiy jixatdan samarali ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, qator orasini qora polietilen plyonka va somon bilan mulchlab sug'orish suvni tejash bilan birga paxtadan mo'l va sifatli paxta hosili olishga imkon bergan.

Tajribalarda g'o'za qator orasini mulchlab sug'orish traktorning ikkita orqa g'ildiragi yuradigan egatga qator oralatib to'shalgan plyonka ustidan olib borilganda sug'orish suvlari 25-30% ga tejalishi, paxta hosildorligi esa gektariga 5-6 tsentnerga oshishi kuzatilgan. Ko'saklarning ochilishi 5-6 kunga tezlashgan, birinchi terim salmog'i 8-10 % ga oshgan, iqtisodiy samara gektariga o'rtacha 220-240 ming so'mni tashkil etgan. Tuproq yuzasi mulchlanganda karbonat angidrid va uglevodorod guruhidagi metan va etilen gazlarning yuqori konsentratsiyasi shakllangan. Ular tuproqda qiyin eriydigan fosfatlarni oson eriydigan shaklga keltiradigan mineral (ko'mir kislotasi) va organik kislotalar (sirka kabi) hosil bo'lishi jarayonida qatnashib, g'o'zaning fosforli o'g'itlar bilan oziqlanish samaradorligining oshishiga yordam bergan.

Bularga qo'shimcha takrorlash lozimki, qator orasi qora polietilen plyonka bilan mul'chlab sug'orilganda g'o'zaning o'suv davri davomida qator orasiga ishlov berish soni qisqargan hamda sug'orish kam me'yorlarda tez-tez amalga oshirilishi natijasida g'o'zaning ildiz tizimining tuproq yuqori haydov va haydov osti qatlamida tarqalishi o'simlik tomonidan tuproqdagi zaxira ozuqa moddalardan samarali foydalanish uchun qulay sharoit yaratilishi aniqlangan. Tumandagi

Qo'qumboy, Do'stlik, Tuyatoydi sharsharasi" Tuyatoydi sharsharasi" suv istemolchilar uyushmasi ta'sarufidagi 200 gektar yer maydonlari suv eng taqchil bo'lgan xududlar xisoblanadi.Fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jalik ekinlaridan paxtani polietilen plyonka bilan mul'chlab sug'orishni endilikda tashkil etish zarur.Berilgan jadvaldagi Suv istemolchilar uyushmasidagi fermer xo'jaliklari xududlari o'rganilganda (7- jadval).

7-jadval

Kosonsoy tumanida egatga plyonka to'shab sug'orish

	Hudud nomi	Fermer xo'jaliklari nomi	Egatga plyonka to'shab sug'orish	
			may doni, ga	ekin turi
1	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Savrisada gavxari"	19	Paxta
2	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Ququmboy xosili"	22	Paxta
3	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Kelajak dur javoxiri"	24	Galla
	"Ququmboy xazinasi" SIU	"Faxriylar oq oltini"	16	Paxta
	"Tuyatoydi sharsharasi" SIU	"Shoxnafis kosoni"	19	Paxta
	"Chindovul ilonkir" SIU	"Namuna shirin"	20	Paxta
	" Tuyatoydi sharsharasi" SIU " SIU	"Chungbosh paxtakori"	12	Paxta
	"Do'stlik" SIU	"Yoshlik Islomxon bogi"	22	Paxta
	"Do'stlik" SIU	"Kushon tashabbuskor"	16	Paxta
0	"Do'stlik" SIU	"Ilonqir o'lkasi"	18	Paxta
1	"Do'stlik" SIU	"Uch uglon dalasi"	12	Paxta
JAMI			200	

Jadval:Podshoota –Chodak irrigatsiya tizimi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bundan tashqari sug'orish usullaridan yana biri bu tomchilatib sug'orishdir. Qishloq xo'jaligi amaliyotida qo'llanilayotgan nisbatan yangi sug'orish usuli bo'lib, bunda maxsus fil'trlar yordamida tozalangan suv tomchilatgichlar orqali

tomchi shaklida tuproqqa berilib, o'simlikning ildiz tizimi eng ko'p tarqalgan tuproq qatlamini lokal namiqtirishga erishiladi. Tomchilatib sug'orish O'zbekistonda 1975 yildan boshlab tajriba tariqasida bog' va tokzorlarni sug'orishda tadbiriq qilina boshlandi.

Tomchilatib sug'orish egatlab sug'orishga nisbatan o'simliklarning ildiz tizimi tarqalgan tuproq qatlamining o'zini namlashi tufayli suvdan foydalanish samaradorligining kaattaligi (85-98%);

- Suvning infiltratsiya va bug'lanishga eng kam miqdorda sarf bo'lishi;
- Oqava suv chiqmasligi natijasida irrigatsion eroziyaning yuzaga kelmasligi;
- O'g'itlarni tuproqqa lokal kiritish imkoniyatining mavjudligi;
- Murakkab relyefli joylarda qo'llash mumkinligi;
- Hosildorlikning o'rtacha 20–50 % ga ortishi kabi afzalliklarga ega.

Surxon-Sherobod dashtidagi taqirli-o'tloq tuproqlarda B. Jo'raqulov va Sh. Mirzayevlar g'o'zani har xil sug'orish turlarining samaradorligini aniqlash bo'yicha maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida egatlab (har bir egatdan va egat oralatib), tomchilatib (namlagichlar har bir egatga va egat oralatib joylashtirilgan), plyonka to'shama ustidan (to'shama har bir egat va egat oralatib yotqizilgan) va yomg'irlatib sug'orish usullari o'rganilgan. Tuproq namligini CHDNS ga nisbatan 70-65 foizdan yuqori darajada tutib turish uchun g'o'zaga egatlab sug'orish variantlarida 5 marta, ja'mi 5545–5585 m³/ga, tomchilatib sug'orishda 10 marta, ja'mi 2945–3050, plyonka ustidan sug'orish variantlarida 10 marta, ja'mi 2140–1840 m³/ga miqdorida sug'orilgan. G'o'za tomchilatib va plyonka to'shama ustidan sug'orilganda suvning oqavaga va infil'tratsiyaga isrofining kamayishi evaziga mavsumiy sug'orish me'yori egatlab sug'orishdagiga nisbatan 50–60 foizga kamaygan. Shuningdek, egat uzunligi bo'ylab tuproqning bir xil chuqurlikda namlanishiga erishilgan, o'simlikning o'sib rivojlanishi yaxshilangan va gektaridan 8–12 tsentnerdan qo'shimcha hosil olingan.

Tomchilatib sug'orish qator afzalliklar bilan bir qatorda tizimni barpo etishga kapital xarajatlarning nisbatan kattaligi, quvur va tomchilatgichlarning suvdagi qo'shilmalar hamda kimyoviy birikmalar bilan ifloslanishi natijasida suv

o'tkazmay qo'yishi, sug'oriladigan dala mikroiklimini boshqarish imkoniyatining pastligi, bog' va tokzorlarni qayta barpo etishda tizimni yangidan qurish lozimligi kabi kamchiliklarga ega (8-jadval).

8-jadval

Tomchilatib sug'orish tizimi orqali 1 soat ichida beriladigan suv miqdori ($m^3/ga / 1 soat$)

Agatning eni, sm.	Tomchilat gichlar oralig' masofasi sm.	Quvurni ng 1 ga dagi uzunligi	Tomchil atgichni ng soni, dona/1 ga.	Beriladigan suv miqdori, litr/1 soat		
				Tomchilat gichdan soatiga 2 litr.	Tomchil atgichda n soatiga 2.5 litr.	Tomchilat gichdan soatiga 3 litr.
90	100	5555	5555	11,1	13,8	16,6
	90	5555	6171	12,3	15,4	18,5
	60	5555	9254	18,5	23,1	27,7
60	90	8300	9221	18,4	23,0	27,6
	70	8300	11856	23,7	29,6	35,5
	60	8300	13827	27,6	34,5	41,5

Jadval: Podshoota –Chodak irrigatsiya tizimi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Tomchilatib sug'orishni suv resurslari bilan kam ta'minlangan qurg'oqchil mintaqalarda, boshqa sug'orish usullarini qo'llash mumkin bo'lmagan, murakkab rel'efli yerlarda, sug'orish suvi chuchuk yoki kam minerallashtgan va suv o'tkazuvchanligi yuqori bo'lgan yengil qumoq, qumli sho'rlanmagan tuproqlarda qo'llash tavsiya etiladi. Bu sug'orish tizimini chuchuk, sizot suvlari 2 metrdan, minerallashtgan sizot suvlari 4 metrdan chuqurda bo'lgan, qiyaligi 0,05 dan katta yerlarda qo'llash maqsadga muvofiqdir. Tumanda dastlab, "Kosonsoy serxosil intensiv bog'lari" fermer xo'jaligida 180 gektar bog'larda tomchilatib sug'orish asosida mevali bog'lar(shaftoli, o'rik, gelos) tashkil etildi (9-jadval).

9-jadval

Kosonsoy tumanida tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish

Tashkil qilingan fermer xo'jaligi	Maydon.gek.	Ekin turi	Ajratilgan mablag	Xomiy bank
Alisher Valisher SIU xududidagi Xamkor f/x	42,0	g'o'za	15750,0	Agrobank
Quqimboy xazinasini SIU xududidagi Quqimboy oltin tolasi f/x	8,0	g'o'za	3000,0	Agrobank
Alisher Valisher SIU xududidagi Nasiba Dilshoda f/x	10,0	g'o'za	3750,0	Xalq banki
Tuman bo'yicha jami	60,0		22500,0	22500,0

Jadval:Podshoota –Chodak irrigatsiya tizimi boshqarmasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Keyichalik tumanning suv resurslari taqchil bo'lgan daryo oqimi oxirida joylashgan Alisher Valisher, Qo'qumboy xazinasini suv istemolchilar uyushmalari fermer xo'jaliklarida (Xamkor, Qo'qumboy oltin tolasi va Nasiba-Dilshoda) 60 gektar paxta maydonlarida tomchilatib sug'orish usullari joriy etish rejalashtirilgan. Buning uchun Agrobank va Xalq bankidan imtiyozli kredit joriy etilgan. Ma'lumki, tomchilatib sug'orishni tashkil etish kattagina mablag talab qiladi. Uni 100 gektar maydonda joriy etishga sarf bo'lgan mablag' 286 million so'mga teng bo'ldi (1 gektarga 2,86 mln so'm). Demak, tomchilatib sug'orishni O'zbekistonda joriy etishni kechiktiruvchi asosiy omil katta boshlang'ich xarajatlar bo'lib, hozirgi vaqtda fermerlarimiz uchun bunday harajatlar qilish qiyin. SHuning uchun bu xarajatlarni xar yili meliorativ qurilishlarga ajratilayotgan katta mablag'lar singari, davlat byudjeti hisobiga amalga oshirish kerak. Tomchilatib sug'orishga o'tish faqat iqtisodiy sabablarga ko'ra zarur bo'lib qolmay, balki ekologik jihatdan ham, ya'ni O'zbekistonning kelajagi uchun xizmat qiladi.

XULOSA

Kosonsoy daryo xavzasida suv resurslaridan foydalanishni rejalashtirish odatda daryo xavzasidagi mavjud suv resurslarining umumiy miqdorini aniq baholash, ularning oqish rejimini aniqlash, daryo xavzasidagi suv ist'molchilari tomonidan ist'emol qilinayotgan suvlarning umumiy miqdorlari va ist'mol rejimlarini aniqlash, mazkur suv ist'emoli rejimini daryo suv oqimi rejimiga mos tushishini aniqlashtirish kabi ishlarni amalga oshirilishini maqsadga muvofiq.

Daryo xavzasidagi mavjud suv resurslarining umumiy miqdorini aniq baholash, ularning oqish rejimini aniqlash gidrologik tadqiqotlar. Shu jumladan zarur hisob-kitoblar va bashoratlar yordamida amalga oshirish lozim.

Gidrologik hisob-kitoblar va bashoratlar ko'p yillik kuzatuv ma'lumotlari asosida odatda ma'lum vaqt oralig'i uchun amalga oshiriladi muntazam tashkil etish va uni monitoring qilishni kuchaytirish.

Daryolar suvlaridai samarali foydalanish yo'nalishidagi amaliy tadqiqotlar natijasida daryolar oqimlarining yillararo va mavsumlararo (davriy) o'zgarish qonuniyatlari aniqlashtirish va bular asosida turli muddatga mo'ljallangan gidrologik bashoratlar ishlab chiqish.

Gidrologik bashoratlar natijalari asosida aholi, iqtisodiyot tarmoqlari, qishloq xo'jalik ishlab chiqaruvchilari: (fermer xo'jaliklari) va boshqa muassasalarni suv ist'emoli miqdorlarini aniq belgilash shuningdek iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini suv resurslaridan foydalanish faoliyatini rejalashtirish imkoniyatlari yaratiladi.

Kosonsoy daryosi suvlaridan samarali foydalanishda tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari muxim ahamiyatga ega:

Vazirlik bilan kelishilgan holda suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish yuzasidan davlatlararo (O'zbekiston va Qirg'iziston viloyatlari), havza (Namangan viloyati) va mahalliy (irrigatsiya tizimlari va magistral kanallar) bo'yicha seminarlarni tashkil etish;

- Kadrlarni malakasini oshirish, xorijiy davlatlarda o'qitish va tajriba almashish;
- Monitoring tizimini tashkil qilish;
- Suv resurslaridan samarali foydalanish yuzasidan ijtimoiy fikrlarni o'rganish;
- Suv xo'jaligi tizimida boshqaruvning zamonaviy va o'ta zamonaviy (avtomatika va telekommunikatsiya) tizimlariga hamda suv resurslarini tejash texnologiyasiga bosqichma-bosqich o'tish jarayonini amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Namangan viloyatining Kosonsoy, To'raqo'rg'on va Chust tumanlarida Kosonsoy daryosining quyi oqimidagi xo'jaliklarida tavsiya etilgan 450 gektar qishloq xo'jaligi ekinlarini sug'orishning ilg'or usullari ko'chma egiluvchan quvurlar (200gektar), polietilen plyonka bilan mul'chlab sug'orish (180gektar) va tomchilatib sug'orish (60gektar) yer mydonlarida foydalanishda Podshoota-Chodak irrigatsiya tizimi va tumandagi suv istemolchilar uyushmalari zimmasiga yuklatish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Т. Ўзбекистон 2001. 3-бўлим 12-боб. 55-модда. 11 б.
2. Сув ва сувдан фойдаланиш тўғрисидаги қонун. Ўзбекистоннинг янги қонунлари. 1993. 8 март. 8-сон. Т. Адолат, 56-103 б.
3. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси. Ўзбекистон нашриёти. 1996, 74-модда. 36 б.
4. Указ Президента Республики Узбекистан «О важнейших направлениях углубления реформ в сельском хозяйстве». 24 марта 2003 г. Н УП-3226. http://www.pravo.uz/arcxive/get_data.pxp3?poisk31740&cubk0#0
5. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан 03.08.1993 г. №385 О лимитированном водоиспользования в Республике Узбекистан. – ИПСНОРМА-СЛИЭНТ – ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РУЗ-стандарт - [1993 г.] Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари рўйхати, 1993 й.
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ердан фойдаланиш самарадорлигини ошириш тўғрисида»ги Фармони. ПФ №1009. 1994 йил 24 ноябрь. Т., Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 1994 йил. 11-12 (1223-1224)-сон. 32-б
7. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Сув ресурсларини тўплаш, экин майдонларини суғориш учун насос станцияларини электр билан таъминлаш ва истеъмол қилинадиган электр энергияси учун ҳисоб-китоб қилиш тартибини тасдиқлаш тўғрисида»ги Қарори. №408. 1999 йил 31 август. Т., Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 1999. 8-сон. 29-31б.
8. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «Ўзбекистон Республикаси қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлигини ташкил этиш тўғрисидаги» 1996. 26-ноябрь. 419-сонли қарор Ўзбекистон қонун ҳужжатлари тўплами. Т. 1996. 11-сон 18-19 б.

9. Мирзиёев, Ш.М. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти Бош Ассамблеясининг 72-сессиясида нутқи <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>
10. Mirziyoyev, Sh. M. Risq-ro'zimiz bunyodkori qishloq xo'jalik xodimlari mehnatini ulug'lash, soxa rivojini yangi bosqichga ko'tarish-asosiy vazifamizdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Qishloq xo'jaligi xodimlari kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. <http://www.uza.uz/uz/documents/rizq-ro-zimiz-bunyodkori-bo-lgan-qishloq-xo-jaligi-xodimlari-09-12-2017>
11. Ўзбекистон Республикаси энциклопедияси. 12-жилд- Т.: Давлат илмий нашриёти, 2006.- Б.302.
12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 21 iyundagi 176-sonli "Tomchilatib sug'orish tizimini va suvni tejaydigan boshqa sug'orish texnologiyalarini joriy etish va moliyalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori
13. Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent-«O'zbekiston» - 2016. 56 bet
14. Mirziyoyev. Sh. M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib - intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Toshkent: "O'zbekiston", 2017. - 104 b.
15. Mirziyoyev Sh. M. "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz" Toshkent-«O'zbekiston» - 2017. 488 bet.
16. Каримов И. А. Дехқончилик тараққиёти фаровонлик манбаи –Т., Ўзбекистон. 1994. -71б
17. Каримов И. А. Иқтисодий ислохат: масъулиятли босқич –Т., Ўзбекистон. 1994. -44 б.
18. Каримов И. А. Ўзбекистон ислохотлари чуқурлаштириш йўлида-Т., «Ўзбекистон», 1995. 60-62-77 б.
19. Абдувохидов А. Сув захираларидан фойдаланиш.//Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги.- 2004,- № 7. 8-9 б.

- 20.Абдуллаев А.Х. Водо-и солеобмен орошаемых почв и влагообеспеченность хлопчатника. – “Фан”, 1992, 40-41 с.
- 21.Абдуллаев О. Наманган вилояти.- Наманган. 1995. -12-13 б.
- 22.Абдуллаев О.Фарғона водийси: ижтимоий-иқтисодий ривожланиш жараёнлари.- Наманган. 2000, -210 б.
- 23.Абдуллахонов Р.А. Ўзбекистонда сув хўжалиги комплекси ва унинг муаммолари. –Т., 2003. - 28-32 б.
- 24.Аракелова К. Эффективно использовать земельно-водные ресурсы. // Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги.- 2004,- № 9. -35-36 с.
- 25.Баратов А. Қишлоқ хўжалигида сувни тежаш ва ундан самарали фойдаланиш масалалари. // Фарғона водийси географлари уюшмасининг илмий–амалий семинари материаллари. Фарғона 2017. 115-117 б
- 26.Баратов А. Фарғона водийси магистрал каналлардан самарали фойдаланишнишнинг иқтисодий омиллари //Фарғона водийси географлари уюшмасининг илмий-амалий семинари материаллари. Фарғона 2017. 118-121 б
- 27.Глобал экологик конвенция: салоҳиятни ривожлантириш бўйиша стратегик фаолиятлар йўналиши. ГЕЖ/БМТТД «Мамлакатнинг глобал экологик конвенцияларни бажаришга доир имкониятини миллий баҳолаш» лойиҳаси бўйича якуний ҳисобот, Тошкент, 2006.
28. Жуманов Д., Мўминов К., Тоштемиров А. Сув ва ҳосил //Ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги.-Тошкент, 2004. № 3. –Б. 23-24.
29. Норин – Сирдарё ирригация тизими хавза бошқармаси маълумотлари(2016-2017 йил)
- 30.Олимжонов О. СФУ: уларнинг ташкилий ва молиявий фаолиятини такомиллаштириш // Ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги.- Тошкент, 2003. № 3. - Б. 4-5.
- 31.Сиддиқов Х., Мамаджанов Н. Мелиорация экологияси // Ж. Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -Тошкент, 2004 № 8. –Б. 34.

- 32.Солиев Б. Қишлоқ хўжалиги ва экология//Ж.Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги. -Тошкент, 2001. № 3. –Б. 54-55.
- 33.Духовний В. А., Соколов В. Сув ресурсларини интеграциялашган ҳолда бошқариш. Тўртинчи жаҳон сув форуми олдида Марказий Осиё тажрибаси ва сабоқлари, 2005. 27-29 б
- 34.Хамраев Н.Р. Водосбережение и водообеспечение устойчивого развития засушливых территорий.– Т., «Чинор» ЭНК, 2000, 84 с.
- 35.Ирригация ва сув муоммолари илмий тадқиқот институти: Кичик дарёлар сув ресурсларини мукамал бошқариш ва улардан оқилona фойдаланиш-Тошкент 2014, № 1.- 28-34б
36. <http://www.msvx.uz/rus/about.php> (Ўзбекистон Республикаси Қишлоқ ва сув хўжалиги вазирлиги интернет сайти).
- 38.<http://dialogue.icwc-aral.uz/first.htm> (Диалог о воде и климате).
- 39.<http://www.cawater-info.net>
- 40.<http://www.swisscoop.kg> (Сайт программа Сотрудничество шведсария со странами Центральной Азии).

INTERNET SAYTLARI

41. www.tsue.uz
42. www.ski.ilm.uz
43. www.uhh.hawaii.edu
44. www.ecfak.timacad.ru

